

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYORLASH VA ULARNI
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI



“TIBBIYOTDA LOTIN TILI VA ATAMASHUNOSLIK”

TOSHKENT-2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYORLASH VA ULARNI
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

“TIBBIYOTDA LOTIN TILI VA ATAMASHUNOSLIK” YO‘NALISHI

TIBBIY TA’LIMDA LOTIN TILINING O‘RNI MUAMMOLARI VA
YECHIMLARI

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV–USLUBIY MAJMUA

TOSHKENT-2026

Mazkur o‘quv uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyruo‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

“Tibbiyotda lotin tili va atamashunoslik” O‘quv–uslubiy majmua //“TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI”MCHJ, Toshkent –2025 82 bet

Tuzuvchilar:

Abrayeva Sh.E. Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son o‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Mamatov A.E. O‘zbekiston Milliy Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Fransuz filologiyasi kafedrasi f.f.d., professor

Xorijiy eksperti:

Sitdikova A.V. Rossiya Sog‘liqni Saqlash Vazirligi Qozon Davlat Tibbiyot Universiteti Lotin tili va tibbiy terminologiya kafedrasi filologiya fanlari nomzodi, katta o‘qituvchi

O‘quv uslubiy majmua Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi tarmoq markazining “Ta’lim texnologiyalari” kafedrasi yig‘ilishining bayoni bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	53
III. NAZARIY MATERIALLAR	301
IV. AMALIY MASHO‘ULOT MATERIALLARI.....	46
V. GLOSSARIY.....	73
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	75

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF6097-sonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son, 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda raqamli kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilo'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular mazmuni tinglovchilarninigi ta'lim jarayonini raqamlashtirish asosida o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlarni amaliyotga tadbiq etish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida pedagoglarning raqamli kompetentligi va uning tarkibiy tuzilmasi, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish, masofiviy ta'lim texnologiyalari va raqamli ta'lim resurslari asosida ta'lim jarayonini loyihalash, meta texnologiyalarni ta'limda samarali integratsiya qilish, ta'lim sohasida sun'iy intellektidan foydalanish, masofiviy ta'lim platformalariga videokontent yaratish, raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan o'qitish metodlarini qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: ta'lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida pedagoglarning raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish, masofiviy ta'lim texnologiyalari va raqamli ta'lim resurslari asosida ta'lim jarayonini loyihalash usullarini oliy ta'lim amaliyotida qo'llash haqida nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Modulning vazifalari: “**Tibbiyotda lotin tili va atamashunoslik**” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilo‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta‘minlash;
- o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta‘minlash borasidagi ilo‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

“**Tibbiyotda lotin tili va atamashunoslik**” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“**Tibbiyotda lotin tili va atamashunoslik**” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
- tibbiyotda lotin tili va atamashunoslik yo‘nalishi sohasida respublikamiz va xorijda olib borilayotgan ishlar;
- tibbiyotda lotin tili atamashunosligi yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi;

- tibbiy anatomiya va gistologiya yo‘nalishidagi bilimlarini xalqaro standartlarga muvofiq ravishda egallashini ta‘minlash;
- tibbiyotda qo‘llaniladigan dorishunoslik atamalarini bilishi kerak
- tibbiyotda lotin tili atamashunosligining bugungi kundagi xolati;
- tibbiyotda lotin tili atamashunosligining rivojlanish istiqbollari;
- tibbiyotda lotin tili va atamashunoslik sohasidagi xalqaro tajribalarini pedagogik mahorat bilan boo‘liqlikda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish strategiyalari;
- xalqaro tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish va tibbiyot sohasida tibbiy terminlarni mukammal o‘rganishga tatbiq etishdagi muammolarini aniqlash, tahlil etish va umumlashtirishda kasbiy mahorat malakalarini egallashi lozim.

Tinglovchi:

- tibbiy-anatomik, klinik, farmatsevtik atamalarni, aforizmlarni lotin tiliga va lotin tilidan tarjima qilish;
- grammatika elementlari (tibbiy atamashunoslikda qo‘llaniladigan ot va
- sifatlarning turlanishi, moslashuv dasturi bo‘yicha fe‘l, old qo‘shimchalar, son va sifatdash) ni;
- bilim, fan sohasining ma‘lum bir terminologiyasi – bu tushunchalar tizimida ilmiy tushunchalarni ajratib ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan, o‘zaro ma‘lum bir aloqa va boo‘liqlikda bo‘lgan terminlar, so‘zlar va so‘z birikmalari tizimidir;
- retseptlarni savodli yozish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;
- faol so‘z boyligi tarzida leksik va so‘z yasash birliklarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- Atamashunoslik – ilm, ilmiy adabiyot tilining muhim ajralmas qismi ekanligi haqida tanishib olishi va *malakalariga* ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

- lotin tili va tibbiy atamashunoslik o‘quv kursini o‘zlashtirish jarayonidagi kasbiy kompetensiyalardan foydalanish;

- lotin tili va tibbiy atamashunoslik kursining metodlari va rivojlanish bosqichlari;
- lotin tili kursiga qo'yiladigan malakaviy va axloqiy talablar;
- lotin tili va tibbiy atamashunoslik kursini o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy uslublari, savol-javob, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llay olish;
- kursni o'zlashtirish orqali tinglovchilar tibbiyot oliygohlarida o'rganiladigan lotin tilidagi tibbiy atamalarni mazmun va mohiyatini o'rganish, tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy malakaviy **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Tibbiyotda lotin tili va atamashunoslik” moduli ma'ruza va amaliy masho'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va masofaviy ta'limga asoslangan raqamli texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- video ma'ruzada zamonaviy interaktiv texnologiyalar yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalar;
- o'tkaziladigan amaliy masho'ulotlarda bulutli texnologiyaga asoslangan dasturiy vositalar, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan boo'liqligi va uzviyligi

“Tibbiyotda lotin tili va atamashunoslik” moduli bo'yicha masho'ulotlar o'quv rejasidagi **“Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish”** moduli bilan o'zaro boo'liq hamda uslubiy jihatdan uzviy boo'langan holda pedagoglarning ta'lim jarayonlarida raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarni qo'llash mahoratlarini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlari, pedagogning raqamli kompetentligi va uning tarkibiy tuzilmasi, raqamli didaktika, raqamli ta'limda

pedagogik dizayn, zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish, masofiviy ta'lim platformalari uchun video kontent yaratish asoslarini o'rganish, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi			
		Jami	Nazariy	Amaliy masho'ulot	Ko'chma masho'ulot
1.	Tibbiyotda lotin tili va atamashunoslikka kirish (tibbiy atamalarni o'zlashtirish)	6	2	2	
2.	Tibbiy atamalarni anatomik, klinik va farmatsevtik bo'limlarda to'lo'ri tarjima qilish va tuzish	6	2		
3.	Prefiksatsiya va suffiksatsiya qo'shimchalari orqali atamalarni shakllantirish usuli	12	4	2	6
4.	Lotin va yunon tibbiyot atamashunosligining zamonaviy tizimida aks etishi.	6	2	2	
5.	Dorivor o'simlik xom ashyolaridan olinadigan dori vositalarining yaratilish sikli (nastoykalar, suyuq, quyuq va quruq ekstraktlar)	6	4	2	
6.	Retseptdagi qisqartmalarni tarjima qilishning xususiyatlari va qiyinchiliklari.	10	2	2	6
	Jami:	46	16	18	12

NAZARIY MASHO‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Tibbiyotda lotin tili va atamashunoslikka kirish

(tibbiy atamalarni o‘zlashtirish) (2 soat)

Tibbiy atamashunoslikda qo‘llaniladigan ot va sifatlarning turlanishi, moslashuv, dastur bo‘yicha fe‘l, old qo‘shimchalar, son va sifat-doshni, faol so‘z boyligi va so‘z yasash birliklarini bilishi va ulardan oqilona foydalana olish kerak. Tibbiyotda lotin tili va atamashunoslikka kirish tibbiy atamalarni o‘zlashtirish uchun fundamental bo‘lib, lotin tilining grammatikasi (nom, sifat) va terminologiyaning tuzilishini (qo‘shimchalar, ildizlar, metaforalar) o‘rganishni, maxsus lug‘atlardan foydalanishni, tibbiy atamalarning talaffuz qoidalarini, atamalarni tahlil qilib, ularning ma‘nosini ajratishni (masalan, “auris” (quloq) yoki “dens” (tish) kabi) o‘z ichiga oladi. Bu fan tibbiy bilimlar asosini mustahkamlaydi va xalqaro tibbiyot tilini tushunishga yordam beradi. Hozirgi kunda lotin tilining ahamiyati, tabiiyki, tibbiyotda juda katta, ammo u gumanitar ta‘lim tizimida ham juda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun, tibbiy terminologiya xalqaro tibbiy lug‘at bo‘lib, asosan lotin va yunon tillari va ularning shakllari asosida qurilgan. Ushbu lug‘at butun dunyo bo‘ylab tibbiyot sohasi vakillari uchun bir xil darajada tushunarli bo‘lishi kerak.

Bugungi jamiyat rivojlanishining barcha sohalarida yuksak bilim va intellektga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash davlatimiz taraqqiyotining qadriyatga yo‘naltirilgan ta‘lim siyosatini o‘zida aks ettiradi. Ijtimoiy soha rivojida esa tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarning ham alohida o‘rni mavjud. Ana shu sababli tibbiyot oliy ta‘lim muassasalariga qo‘yilayotgan zamonaviy talablardan biri ularni tibbiyot fani uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan lotin tilini o‘rganishlari, antik, o‘rta asr va jahon madaniyati durdonalaridan bahramand bo‘lishi orqali madaniy-intellektual rivojlantirishdir.

2-mavzu: Tibbiy atamalarni anatomik, klinik va farmatsevtik bo'limlarda to'g'ri tarjima qilish va tuzish. (2 soat)

Lotin tilida o'qish va yozish; tibbiy-anatomik, klinik, farmatsevtik atamalarni, aforizmlarni lotin tiliga va lotin tilidan tarjima qilish.

Har bir bo'lajak shifokor klinik atamalarni bilishi zarur. Turli ma'no anglatuvchi atamalar yasash va ularni tarkibiy qismlarga bo'lib tahlil qilish ko'nikma va malakalarni ko'rib chiqishi zarurdir. Ular yordamida klinik atamalar yasashi va tahlil qila olishi kerak. Tinglovchilarning klinik terminlarni mukammal bilishi tibbiy terminlarni amaliyotda to'g'ri qo'llashga olib keladi. Bu esa o'z navbatida shifokor lug'at fondini boyitib boraveradi. Maqola boshida ta'kidlaganimizdek, aniq tashxis to'g'ri davolash demakdir. Lotin tili, yuqorida aytib o'tilganidek, zamonaviy roman tillarini o'rganishda zarurdir, chunki bu tillarning tarixi, ko'plab fonetik va grammatik atamalar va lug'atning xususiyatlarini faqat lotin tilini bilish asosida tushunish mumkin. Ozroq bo'lsa-da, grammatik va leksik tizimiga lotin tili ham katta ta'sir ko'rsatgan german tillarini (ingliz, nemis) o'rganuvchilarga ham tegishli. Lotin tili, shubhasiz, har qanday sohaga yordam beradi.

3-mavzu: Prefiksatsiya va suffiksatsiya qo'shimchalari orqali atamalarni shakllantirish usuli. (4 soat)

TE lar bo'yicha klinik atamalarni tuzish va umumiy mazmunini aniqlovchi topshiriqlarni bajarish, asosiy mazmunni bildiruvchi ma'noli qismlarga ajratish va atamalarni tuza bilish, savodli yozish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Lotin va yunon tillari tibbiy terminologiyaning asosini tashkil etadi. Klinik atamalarni yasashda prefiks, suffiks va so'z ildizlaridan foydalanish orqali yangi atamalar hosil qilinadi. Zamonaviy tibbiyotda ingliz tilining ta'siri ortib borayotgan bo'lsa-da, lotin va yunon tillarining tibbiy terminologiyadagi o'rni va ahamiyati saqlanib qolmoqda. Klinik atamalarni yasashda bir qator usullar qo'llaniladi. Ushbu usullar atamalarni shakllantirishda asosiy mexanizmlardan hisoblanadi. 1. Suffiksatsiya usuli: Bu usulda so'zning oxiriga qo'shimchalar (suffikslar) qo'shib, yangi atamalar hosil qilinadi. Masalan, "gastritis" (oshqozon yallig'lanishi) so'zida

“-itis” suffiksi “yallig‘lanish” ma’nosini bildiradi. 2. Prefiksatsiya usuli: Bu usulda so‘z boshiga qo‘shimchalar (prefikslar) qo‘shilib, atamaning ma’nosi o‘zgartiriladi yoki aniqlanadi. Masalan, “hypotension” (past qon bosimi) so‘zida “hypo-“ prefiksi “past” ma’nosini beradi.

4-mavzu: Lotin va yunon tibbiyot atamashunosligining zamonaviy tizimida aks etishi. (2 soat)

Terminologik so‘z yasallishining ba’zi umumiy tushunchalarini, lotin va yunon qo‘simchalari minimumini bilib olish. So‘z yasovchi qo‘shimchalar ma’nosini chiqarishni, berilgan ma’no bo‘yicha qo‘shimchali so‘zlarni hosil qila olish.

Tibbiyot sohasi o‘ziga xos terminologiyaga ega bo‘lib, bu terminlarning aksariyati lotin va yunon tillaridan kelib chiqqan. Bu tillarning tibbiy atamalardagi ustunligi tarixiy jarayonlar va ilm-fan rivojlanishi bilan bog‘liq. Lotin tili, o‘zining barqarorligi va xalqaro maqomi tufayli, tibbiy terminologiyaning asosini tashkil etadi. Ushbu maqolada klinik atamashunoslikning shakllanishi, lotin tilining bu jarayondagi roli va atamalarni yasash usullari tahlil qilinadi. Lotin va yunon tillari tibbiyotda ishlatiladigan atamalar va ularning shakllanish usullarini o‘rganadigan fan sohasidir. Ushbu soha tibbiy terminologiyaning shakllanishi, rivojlanishi va tizimlashuvi bilan shug‘ullanadi. Klinik atamashunoslikning asosiy maqsadi - tibbiy atamlarning aniq va izchil qo‘llanilishini ta’minlashdir.

5-mavzu: Dorivor o‘simlik xom ashyolaridan olinadigan dori vositalarining yaratilish sikli (nastoykalar, suyuq, quyuq va quruq ekstraktlar). (4 soat)

Suyuq dori shakllari, suvli va suvsiz erimalar, inyeksion va infuzion eritmalar, ularni tayyorlashda ishlatiladigan yordamchi moddalar, ularni ilmiy asoslangan tarkibini tanlash uchun yordamchi moddalar turi va miqdorini belgilash, tayyorlash texnologiyasi, sanoat miqyosida ishlab chiqarish.

Dorivor o‘simlik xom ashyolaridan dori yaratish sikli o‘simlikni tayyorlash, ekstraksiya (nastoyka, qaynatma olish), konsentrlash (suyuq, quyuq ekstraktlar), quritish (quruq ekstrakt) va yakuniy dori shaklini (tabletkalar, kapsula, sirop) yaratish bosqichlaridan iborat bo‘lib, bunda faol moddalarni saqlab qolish, xavfsiz va samarali preparat tayyorlash muhimdir. Mahalliy o‘simlik xom ashyolari asosida

yangi dori shakllarini yaratish hozirgi zamon farmatsiyasining dolzarb vazifasidir. So'nggi vaqtda dunyo farmatsevtik sanoatida suyuq ekstraktlar va ular asosida uzoq saqlanish muddatiga ega, qabul qilishga qulay dori preparatlarini yaratish, zararsiz dori vositalari zahirasi ko'paytirish imkonini beradi.

6-mavzu: Retseptdagi qisqartmalarni tarjima qilishning xususiyatlari va qiyinchiliklari. (2 soat)

Umum qabul qilingan retseptura qisqartmalarini bilib olish. Qisqartmalarni qo'llagan holda retseptdagi lotincha qismini rasmiylashtira olish.

Retsept -shifokorning farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassisga dori preparatlarini tayyorlash va (yoki) berish hamda uning qo'llanilish usuli to'g'risidagi elektron yoki yozma shakldagi ko'rsatmasi. Retsept so'zi "receptum" - "olingan" so'zidan kelib chiqqan. Retsept muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatdir. Dorixona xodimi retseptlarni yozish tartibini belgilovchi qoidalarini yaxshi bilishi darkor. Retsept blankasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 1-iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan, № 3277 ro'yxat raqamiga asosan maxsus tayyorlangan blankada aniq va ravshan yoziladi. Retseptlar siyoh (ruchka) bilan yoziladi va ulardagi so'zlarni tuzatish yoki o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.

Retsept asosan 9 qismdan iborat:

1. Tibbiyot muassasasining shtamp va shifri - Inscriptio
2. Retsept berilgan sana - Datum
3. Bemorning ismi sharifi – Nomen aegroti
4. Bemorning yoshi – Aetas aegroti
5. Shifokorning ismi sharifi – Nomen medici
6. Shifokor murojaati va dori – darmonning nomi hamda miqdori. - Praescriptio
7. Shifokorning dorixona xodimiga dori tayyorlash (surtma, kukun va boshqalar) to'g'risida ko'rsatmasi- Subscriptio
8. Shifokorning bemorga dorini qabul qilish usuli haqida ko'rsatma - Signatura
9. Shifokorning imzosi va shaxsiy muhri. – Nomen et sigillum personale medici

AMALIY MASHO‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: Tibbiyotda lotin tili va atamashunoslikka kirish (tibbiy atamalarni o‘zlashtirish). (4 soat)

Lotin alifbosi harflari yozilishi va o‘qilishini eslab qolish. Ushbu harflarni ifodalaydigan tovushlarni talaffuz qila olish. Tibbiy atamashunoslikda qo‘llaniladigan ot va sifatlarning turlanishi, moslashuv, dastur bo‘yicha fe‘l, old qo‘shimchalar, son va sifatsoshni, faol so‘z boyligi va so‘z yasash birliklarini bilishi va ulardan foydalana olish.

“Tibbiyotda lotin tili va atamashunoslikka kirish (tibbiy atamalarni o‘zlashtirish)” mavzusiga bag‘ishlanadi. Ushbu mashg‘ulotning asosiy maqsadi talabalarga lotin tilining tibbiyot fanidagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirish, tibbiy terminologiya asoslari bilan tanishtirish hamda tibbiy atamalarni to‘g‘ri o‘qish, yozish va qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Lotin tili tibbiyot sohasida xalqaro ilmiy aloqa vositasi hisoblanib, anatomik, klinik va farmatsevtik terminlarning asosini tashkil etadi. Shu sababli mazkur fan bo‘lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mashg‘ulot davomida tibbiy atama tushunchasiga alohida e‘tibor qaratiladi. Tibbiy atama deganda inson organizmi tuzilishi, kasalliklar, patologik jarayonlar, diagnostika va davolash usullarini aniq ifodalovchi maxsus so‘z va so‘z birikmalari tushuniladi. Atamalar lotin va yunon tillariga asoslangan bo‘lib, ularning tuzilishida ildiz, prefiks va suffikslar muhim o‘rin tutadi. Tinglovchilarga tibbiy terminlarning tarkibiy qismlarini ajratish va ularning ma‘nosini anglash ko‘nikmasi singdiriladi.

2-amaliy mashg‘ulot: Tibbiy atamalarni anatomik, klinik va farmatsevtik bo‘limlarda to‘g‘ri tarjima qilish va tuzish (4 soat)

Anatomik termin tuzilishi va terminni tashkil etuvchi so‘zning grammatik shakllarini aniqlashni, otning turlanishini aniqlashni, otning I, II, IV va V turlanish hamda rod negizini aniqlashni, -um. -on. -a. -us. -u. -en otlarining lo‘at shaklini tuzishni, terminlarni lotin tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan lotin tiliga moslashmagan aniqlovchi bilan tarjima qila olish.

“Tibbiy atamalarni anatomik, klinik va farmatsevtik bo‘limlarda to‘g‘ri tarjima qilish va tuzish” mavzusiga bag‘ishlanadi. Mazkur mashg‘ulotning asosiy maqsadi talabalarda tibbiy terminlarni uch asosiy yo‘nalish — anatomik, klinik va farmatsevtik terminologiya doirasida to‘g‘ri tarjima qilish hamda terminlarni grammatik va semantik jihatdan to‘g‘ri tuzish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Tibbiy terminologiyani chuqur o‘zlashtirish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatida ilmiy aniqlik va tushunarlilikni ta’minlaydi.

3-amaliy mashg‘ulot: Prefiksatsiya va suffiksatsiya qo‘shimchalari orqali atamalarni shakllantirish usuli. (2 soat)

Atama elementlar bo‘yicha klinik atamalarni tuzish va umumiy mazmunini aniqlovchi topshiriqlarni bajarish, asosiy mazmunni bildiruvchi ma’noli qismlarga ajratish va atamalarni tuza bilish, savodli yozish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Amaliy mashg‘ulot “Lotin tili va atamashunoslikda prefiksatsiya va suffiksatsiya qo‘shimchalari orqali atamalarni shakllantirish usuli” mavzusiga bag‘ishlanadi. Ushbu mashg‘ulotning asosiy maqsadi tinglovchilarda tibbiy terminlarning tuzilish qonuniyatlari, xususan prefiks va suffikslar yordamida yangi atamalar hosil qilish mexanizmlarini tushuntirish hamda ularni amaliy faoliyatda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Lotin va yunon tillariga asoslangan tibbiy terminologiyada prefiksatsiya va suffiksatsiya atama yasashning eng muhim usullaridan biri hisoblanadi. Prefiksatsiya atamaning bosh qismiga ma’no yuklovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali amalga oshiriladi. Prefikslar terminning umumiy ma’nosini aniqlashtiradi, yo‘nalish, joylashuv, miqdor, vaqt yoki holatni bildiradi. Masalan, anatomik va klinik terminologiyada organ yoki jarayonning joylashuvi, oldin-ortda, yuqori-quyi, ichki-tashqi holatlari aynan prefikslar orqali ifodalanadi. Talabalar prefikslarning semantik vazifasini tushungan holda terminlarni to‘g‘ri tarjima qilish va mazmunini anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Suffiksatsiya esa atamaning oxirgi qismiga qo‘shimchalar qo‘shish orqali yangi termin hosil qilish usuli bo‘lib, u ko‘pincha kasallik, patologik jarayon, mutaxassislik yoki fan nomlarini ifodalashda qo‘llaniladi. Klinik terminologiyada suffikslar yallig‘lanish, og‘riq, o‘sma, degenerativ jarayonlar va funksional

buzilishlarni bildiruvchi asosiy semantik yukni o'zida mujassamlashtiradi. Suffikslar yordamida terminning qaysi turdagi holat yoki jarayonga taalluqli ekanligi aniqlanadi.

Amaliy mashg'ulot jarayonida tinglovchilar prefiks va suffikslar yordamida tuzilgan tibbiy terminlarni tahlil qiladi, ularning tarkibiy qismlarini ajratadi va har bir komponentning ma'nosini izohlaydi. Bu esa murakkab klinik terminlarning mazmunini tez va aniq tushunishga yordam beradi.

4-amaliy mashg'ulot: Lotin va yunon tibbiyot atamashunosligining zamonaviy tizimida aks etishi (4 soat)

Terminologik so'z yasallishining ba'zi umumiy tushunchalarini, lotin va yunon qo'simchalari minimumini bilib olish. So'z yasovchi qo'shimchalar ma'nosini chiqarishni, berilgan ma'no bo'yicha qo'shimchali so'zlarni hosil qila olish. So'z tarkibi quyidagi na mazmun, na shakl jihatidan bo'linmas, eng kichik ma'noli qismlar farqlanadi: old qo'shimcha (prefiks), o'zak, suffiks va tugallanma (fleksiya). Ushbu eng kichik ma'noli qismlar morfema (yun. morphe - shakl) deyiladi.

Amaliy mashg'ulot "Lotin va yunon tibbiyot atamashunosligining zamonaviy tizimida aks etishi" mavzusiga bag'ishlanadi. Mazkur mashg'ulotning asosiy maqsadi talabalarda zamonaviy tibbiy terminologiyaning shakllanishida lotin va yunon tillarining o'rni va ahamiyati haqida tizimli bilimlarni shakllantirish hamda ushbu tillarga asoslangan terminlarning hozirgi tibbiyot fanlarida qanday qo'llanilishini tushuntirishdan iborat. Zamonaviy tibbiyot terminologiyasi tarixiy jihatdan qadimgi lotin va yunon tillariga tayangan holda rivojlangan bo'lib, bugungi kunda ham xalqaro tibbiy muloqotning asosini tashkil etadi. Lotin tili anatomik va farmatsevtik terminologiyaning asosiy tili sifatida e'tirof etilgan. Inson organizmi tuzilishiga oid atamalar, anatomik nomlanishlar va dori vositalarining rasmiy nomlari asosan lotin tilida ifodalanadi. Zamonaviy tibbiyotda lotin terminlari aniqlik, barqarorlik va xalqaro bir xillikni ta'minlaydi. Tinglovchilar anatomik atamalarning lotin tilida belgilangan me'yorlarga muvofiq qo'llanilishini o'rganish orqali kasbiy nutq madaniyatini egallaydilar. Yunon tili esa klinik

terminologiyaning shakllanishida yetakchi o‘rin tutadi. Kasalliklar, patologik holatlar, simptomlar, diagnostika va davolash usullariga oid atamalarning katta qismi yunon tiliga mansub ildiz, prefiks va suffikslardan tashkil topgan. Zamonaviy klinik terminlarda yunoncha komponentlar yordamida murakkab tushunchalar qisqa va aniq shaklda ifodalanadi. Bu holat tibbiyot fanining tez rivojlanishi sharoitida yangi atamalarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy mashg‘ulot davomida tinglovchilar lotin va yunon terminologik elementlarning zamonaviy tibbiyotdagi qo‘llanilish sohalarini tahlil qiladi, ularning o‘zaro farqi va uyg‘unligini aniqlaydi. Shuningdek, zamonaviy tibbiy adabiyotlarda, xalqaro tasniflarda va klinik amaliyotda qo‘llanilayotgan terminlar misolida lotin va yunon atamashunosligining uzviy bog‘liqligi yoritiladi. Bu jarayon tinglovchilar uchun terminlarni ongli ravishda tushunish va ularni to‘g‘ri tarjima qilish imkonini beradi.

5-amaliy mashg‘ulot: Dorivor o‘simlik xom ashyolaridan olinadigan dori vositalarining yaratilish sikli (nastoykalar, suyuq, quyuq va quruq ekstraktlar). (2 soat)

Suvli va suvsiz eritmalar, inyeksion va infuzion eritmalar, ularni tayyorlashda ishlatiladigan erituvchilar (inyeksion suv), ularni ilmiy asoslangan tarkibini tanlash, eritmani tayyorlash jarayoniga ta’sir qiluvchi oillarni o‘rganish, tayyorlash texnologiyasi, sanoat miqyosida ishlab chiqarish.

Amaliy mashg‘ulot “Dorivor o‘simlik xom ashyolaridan olinadigan dori vositalarining yaratilish sikli (nastoykalar, suyuq, quyuq va quruq ekstraktlar)” mavzusiga bag‘ishlanadi. Ushbu mashg‘ulotning asosiy maqsadi talabalarda dorivor o‘simlik xom ashyolariga asoslangan dori vositalarini yaratish jarayoni, ularning texnologik bosqichlari hamda tayyor dori shakllarining xususiyatlari haqida tizimli bilimlarni shakllantirishdan iborat. Dorivor o‘simliklar farmatsevtika sanoatida biologik faol moddalarning muhim manbai bo‘lib, ularni qayta ishlash jarayoni qat’iy texnologik va farmakopiya talablariga asoslanadi.

Dorivor o‘simlik xom ashyolaridan dori vositalari tayyorlash jarayoni xom ashyoni yig‘ish, quritish, saqlash va standartlashtirish bosqichlaridan boshlanadi.

Xom ashyoning sifati, undagi faol moddalarning miqdori va biologik faolligi tayyor mahsulotning samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun o'simlik xom ashyosi farmakognoziya va farmatsevtik texnologiya tinglovchilariga muvofiq tanlanadi va qayta ishlanadi.

Mashg'ulot yakunida talabalarda lotin va yunon tibbiyot atamashunosligining zamonaviy tibbiy tizimdagi o'rni haqida aniq tasavvur shakllanadi, xalqaro tibbiy terminlarni to'g'ri anglash va kasbiy faoliyatda samarali qo'llash malakalari rivojlanadi. Ushbu bilimlar keyingi maxsus va klinik fanlarni o'zlashtirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

6-amaliy mashg'ulot: Retsept strukturasi. Retsept yozish qoidalari. Tabletk, shamchalar va ko'z plyonkalarini yozishda tushum kelishigini qo'llanilishi.

(2 soat)

Retsepturada atamalarni to'g'ri talaffuz qilish, ixtiyoriy tibbiy atamalarni tuza olish va tushuntira bilish; retseptlarni tez va savodli yozishni o'rgatish, bilim va ko'nikmalarni davomli o'zlashtirish jarayonida mustahkamlash va malakalariga ega bo'lishi kerak.

Amaliy mashg'ulot "Retsept strukturasi. Retsept yozish qoidalari. Tabletk, shamchalar va ko'z plyonkalarini yozishda tushum kelishigini qo'llanilishi" mavzusiga bag'ishlanadi. Ushbu mashg'ulotning asosiy maqsadi talabalarda retsept yozishning umumiy qoidalari, uning tarkibiy qismlari hamda ayrim dori shakllarini yozishda lotin tilining grammatik talablariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Retsept tibbiyot va farmatsevtika amaliyotida huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan rasmiy hujjat bo'lib, u aniq va belgilangan qoidalarga muvofiq yozilishi lozim. Retsept ma'lum bir qat'iy strukturaga ega. U shifokor va davolash muassasasi haqidagi ma'lumotlarni, bemor ma'lumotlarini, dori vositasining nomi, miqdori, dori shakli, qo'llash usuli hamda shifokorning imzosi va sanasini o'z ichiga oladi. Retsept lotin tilida yoziladi va unda xalqaro qabul qilingan qisqartmalar hamda aniq terminlar qo'llaniladi. Retsept yozishda aniqlik va tushunarlilik muhim bo'lib, har qanday grammatik yoki leksik xato dori vositasining noto'g'ri tayyorlanishiga olib kelishi mumkin.

Retsept yozish jarayonida lotin tilining kelishiklar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, dori shakllarini yozishda tushum kelishigi keng qo'llaniladi. Tabletkalar, shamchalar va ko'z plyonkalari kabi tayyor dori shakllari ko'pincha "ol" ma'nosini bildiruvchi buyruq shakllari bilan birga ishlatiladi. Bunday hollarda dori shaklining nomi tushum kelishigida qo'llanilib, dori vositasining aniq shakli va miqdorini ifodalaydi. Tabletkalar yozishda dori moddasining nomi va dozalangan shakli aniqlik bilan ko'rsatiladi. Shamchalar rektal yoki vaginal qo'llanilishiga qarab mos ravishda nomlanadi va ularni yozishda ham grammatik jihatdan tushum kelishigiga rioya qilinadi. Ko'z plyonkalari esa oftalmologik amaliyotda qo'llaniladigan maxsus dori shakli bo'lib, ularni yozishda dori shaklining nomi va faol modda o'rtasidagi grammatik bog'lanish aniq saqlanishi lozim.

Amaliy mashg'ulot davomida tinglovchilar retseptning tuzilishini tahlil qiladi, turli dori shakllarini yozishda tushum kelishigining qo'llanilishiga oid misollarni o'rganadi hamda mustaqil ravishda retsept tuzish orqali amaliy ko'nikmalarni mustahkamlaydi. Mashg'ulot yakunida talabalarda retsept yozishning nazariy va amaliy asoslari, shuningdek, tabletkalar, shamchalar va ko'z plyonkalarini yozishda lotin tilining grammatik qoidalariga rioya qilish malakasi shakllanadi.

Ko'chma mashg'ulot mazmuni.

1-ko'chma mashg'ulot. Lotin tili va tibbiy terminologiya doirasida tibbiy terminlarni tibbiyotda aniq, qisqa, tushunarli va ilmiy asoslangan bilish qobiliyatini shakllantirish. (6 soat)

Tibbiyot sohasida aniq va tushunarli muloqot muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda lotin tili asosida shakllangan tibbiy terminologiya muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tibbiy terminlarni to'g'ri tushunish va qo'llash shifokor, hamshira va boshqa tibbiyot xodimlarining kasbiy savodxonligini oshiradi hamda ilmiy asoslangan faoliyat yuritishga imkon beradi. Lotin tili — xalqaro tibbiy terminologiyaning asosi hisoblanadi. Anatomik tuzilmalar, kasalliklar, tashxislar, davolash usullari va farmatsevtik nomlarning katta qismi lotin tiliga asoslangan. Lotin tili va tibbiy terminologiya asoslarini puxta o'zlashtirish tibbiyot xodimlarida aniq, qisqa, tushunarli va ilmiy asoslangan fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa kasbiy faoliyat samaradorligini oshirib, bemorlar bilan ishlashda va ilmiy izlanishlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-ko'chma mashg'ulot. Tibbiy terminologiyada maqol va matnlarning ahamiyati anglash va to'g'ri tarjima qilish (6 soat)

Zamonaviy tibbiyot fanida ilmiy axborotlarning asosiy qismi maqolalar, darsliklar va ilmiy matnlar orqali yetkaziladi. Ushbu matnlar maxsus tibbiy terminologiyaga asoslangan bo'lib, ularni to'g'ri anglash va tarjima qilish tibbiyot xodimlari uchun muhim kasbiy ko'nikma hisoblanadi. Ayniqsa, lotin va xalqaro terminlarga boy bo'lgan tibbiy matnlarni noto'g'ri talqin qilish tashxis va davolash jarayonida jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin.

Mazkur ishda tibbiy terminologiyada maqol va matnlarning ahamiyati, ularni anglash hamda to'g'ri tarjima qilish masalalari yoritiladi. Tibbiy maqol va matnlar ilmiy bilimlarning asosiy manbai hisoblanadi. Ular orqali:

- yangi kasalliklar va davolash usullari yoritiladi;
- ilmiy-tadqiqot natijalari e'lon qilinadi;
- klinik tajribalar almashiladi.

Bunday matnlar aniq, qisqa va ilmiy asoslangan tilda yoziladi. Ularda tibbiy terminlar qat'iy me'yorlarga muvofiq qo'llanadi. Shuning uchun tibbiy matnlarni o'qish va tushunish terminologik bilimni talab etadi.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

-ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

-davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

«BLIS-SO‘ROV» metodi

«Blis-so‘rov» (inglizcha «blis» – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta’lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o‘qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli masho‘ulot turi, o‘rganilayotgan mavzuning murakkabligi, o‘quvchi (tinglovchi va kursant) larning qamrab olinishiga ko‘ra belgilanadi.

Masho‘ulotlarda ushbu metodni qo‘llash quyidagicha kechadi:

O‘qituvchi o‘rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatini ochibberishni talab etadigan savollarni ishlab chiqib, o‘quvchilar e’tiboriga havola qiladi



O‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar berilgan savolga qisqa muddatda lo‘nda, aniq javob beradi


Guruh (juftlik)da ishlashda bir nafar o‘quvchi berilgan savolga javobqaytaradi, uning guruhdoshlari javobni to‘ldiradi (biroq, fikrlar takrorlanmasligi lozim)

«Blis-so‘rov» metodini qo‘llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy o‘oyalarning mohiyati o‘quvchi (tinglovchi va kursant) lar tomonidan oo‘zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

«BUMERANG» strategiyasi


«Bumerang» texnologiyasi o‘quvchi (tinglovchi va kursant) larni dars jarayonida, darsdan tashqari vaqtlarda turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, yodda

saqlash, soʻzlab berish, fikrlarini erkin bayon etish, qisqa vaqt ichida koʻp bilimga ega boʻlish, oʻqituvchi tomonidan barcha oʻquvchilar faoliyatining birdek baholanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. U oʻqituvchiga tarqatma materiallarning oʻquvchilar tomonidan guruhli, individual shaklda samarali oʻzlashtirilishini, auditoriyada tashkil etiladigan suhbatning munozaraga aylanishini taʼminlash orqali ularning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Bu texnologiyadan suhbat-munozara shaklidagi darslarda individual, juftlik, guruhli va jamoaviy shakllarda foydalanish mumkin. Boshqa interfaol metodlar kabi taʼlim jarayonida mazkur texnologiyani qoʻllash ham muayyan tartibda amalga oshiriladi. Yaʼni:



«VENN DIAGRAMMASI» grafik organayzeri

Grafik organayzer oʻquvchi (tinglovchi va kursant) larda mavzuga nisbatan tahliliyyondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini oʻzlashtirish (sintezlash) koʻnikmalarini hosil qilishga yoʻnaltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema boʻyicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasi oʻzaro teng toʻrt boʻlakka ajratiladi va har bir boʻlakka quyidagi sxema chiziladi:



Foydalanish doiralari - Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda savollarni ma'lum o'quv mavzusiga va har qanday yoshdagi o'quvchilar guruhlariga moslashtirishda ham individual, ham guruh bo'lib ishlash uchun qo'llaniladi.

Afzalliklari - Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, predmetlar, hodisalar va shu kabilarning ham farqi, ham o'xshash jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

Qiyinchiliklar - Aniqlanmagan.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:


1. **-bosqich.** O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi va har bir guruhga bittadan ob'ekt (tushuncha yoki predmet) beriladi.

2. **-bosqich.** Dskaga ikkita kesishuvchi aylanalar chiziladi va guruhlariga bo'lib beriladi.

3. **-bosqich.** Guruhlar o'z obyektlari xususiyatlarini o'z aylanalari ichiga navbatma-navbat yozishadi.

4. **-bosqich.** Xususiyatlar yozib bo'lingandan so'ng, bu ikki obyektning umumiy xususiyatlari bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Aylanalardagi umumiy xususiyatlar haqidagi yozuvlar o'chiriladi va ular umumiy soha ichiga bitta qilib yoziladi.

5. **bosqich.** O'quvchilar ikki obyektning taqqoslash natijasida hosil bo'lgan Venn diagrammasini tahlil qiladilar. Bu obyektlarning umumiy va farqli tomonlariga yana bir bor e'tibor qaratiladi.



So‘ng, o‘qituvchi ikkita klinik atamani doskaga yozadi:


Osteoarthritis

Chondromalacia. Shu ukki atamaning o‘xshash va noo‘xshash jihatlarini aniqlash maqsadida talabalar 3 ta kichik guruhlariga bo‘linadi. 1-guruh talabalari sariq halqaga faqat Osteoarthritis atamasiga xos bo‘lgan xususiyatlarni yozishi, 2-guruh talabalari pushti halqaga faqat Chondromalacia atamasiga xos bo‘lgan xususiyatlarni yozishi, 3-guruh talabalari esa ikkala halqaning tutashgan joyiga 1.

Osteoarthritis atamasida ham, Chondromalacia atamasida ham mavjud bo‘lgan o‘xshashliklarni yozishi kerakligi tushuntiriladi. Natijada talabalar o‘rganilgan mavzuni mustahkamlaydilar va tahlil qiladilar, shu bilan bir qatorda klinik atamalarning o‘ziga xos xususiyatlari hotiralarida saqlanib qoladi. Diagramma muhokama va tahlil qilinadi.

“Klaster” metodi -“Klaster” so‘zi lotincha «g‘uncha, bog‘lam» manosini anglatadi. U mavjud bilimlarni ifodalash, muayyan mavzu bo‘yicha o‘ylash jarayonida yangicha fikrlar uyg‘otadi. Klaster tarkibiga kiritilgan asosiy tushuncha, g‘oyalar o‘rtasidagi muhim bo‘lgan bog‘lanishlarni aniqlash, keng ko‘lamli fikr yuritishni rivojlantiradi. “Atrof” ga turlicha nazar solishga o‘rgatadi. Klaster tuzishni

mavzuni mukammal o‘rganmasdan turib qo‘llagan ma’qul. Klaster muhokama qilinayotgan tushuncha, mavzuga so‘z yoki jumlag taalluqli sifatlar malum yo‘nalishi bo‘yicha guruhlanadi. Klaster tuzish ketmaketligi doskasi yoki qog‘oz varag‘iga muhokama qilinadigan mavzudagi asosiy tushuncha, “kalit” so‘z yoki gap yozing. Sizni fikringizcha shu mavzuga, tushuncha , “kalit” so‘zga tegishli bo‘lgan so‘zlar yoki gaplarni yozing. Yozilgan tushuncha, g‘oyalar o‘rtasida birbiriga mos bog‘lanishni o‘rnatib. Imkoniyat boricha turli variant, g‘oya, fikrlarni ko‘proq yozishga harakat qiling. Eslaganingizning barchasini yozing.



F.S.M.U. metodi - bu metod mashg‘ulotda o‘rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar bo‘yicha talabalar o‘z fikrlarini bayon qilishlari, shu fikrlarni asoslovchi sabablarni ko‘rsatishlari, ularni tasdiklovchi misollarni keltirishlari va pirovardida umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishlarini o‘rgatish va mashq qildirish metodidir. Bu metod talabalarni erkin fikrlashga, o‘z fikrini himoya qilishga va boshqalarga o‘z fikrini o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, bahs-munozara madaniyatiga, shu bilan bir qatorda, talabalar tomonidan o‘quv jarayonida egallangan bilimlarni tahlil etishga va o‘zlashtirish darajasini aniqlashga, baholashga o‘rgatadi. FSMU metodining umumiy sxemasi:

F – fikringizni bayon eting;


S – fikringizni asoslovchi sabab ko'rsating;

M – ko'rsatgan sababingizni tasdiqlovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring. O'qituvchi quyidagiga o'xshagan vazifalar yozilgan tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab, mashg'ulot vaqtida kichik guruhlariga yoki alohida talabalarga tarqatadi.

Grafik organayzer o'quvchi (tinglovchi va kursant)lar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yaxshi samara beradi.

Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:



Grafik organayzerni qo'llash jarayonida har bir guruh muayyan mavzuga oid topshiriqlarni bajaradi. O'quvchi (tinglovchi va kursant) larning e'tiborlariga quyidagi jadval taqdim etiladi:

Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1- guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

«VIDEO TOPISHMOQ» strategiyasi

So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televidenie, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida o‘qitishda turli axborot vositalaridan o‘rinli, maqsadli, samarali foydalanish vazifasi turadi.

«Video topishmoq» strategiyasidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'quvchi (tinglovchi va kursant)larga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish qilinadi

O'quvchi (tinglovchi va kursant)lar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydi

O'quvchi (tinglovchi va kursant) video lavhalarda aks etgan jarayon, hodisa yoki voqeliklarning mohiyatini daftarlariga qayd etadi

O'quvchi (tinglovchi va kursant)lar o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradi

Video lavhalar namoyish qilingach, o'quvchi (tinglovchi va kursant) lardan lavhada qanday jarayon, hodisa yoki voqelik aks etganligi, qaysi badiiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxs ifodalan- ganligi yuzasidan mushohada yuritish talab qilinadi. Video topish- moqning javobini topish orqali o'quvchi (tinglovchi va kursant)lar o'rganiladigan yangi mavzu haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

“Kichik guruhlarda ishlash” usulining afzalligi:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha talabalar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Shu zalylda yangi mavzu talabalarga tushuntiriladi. Talabalar barchasi faolligiga erishiladi va o'rganilgan atamalar dars davomidayoq xotiraga muxrlanadi.

1. Klinik atamashunoslikning o'ziga xos xususiyatlari “Blits so'rov” tarzida savol-javob o'tkazish bilan boshlanadi:

- a) **Osteoarthritis** nima?
- b) **Chondromalacia** – qanday kasallik?
- c) **Osteoporosis** – nima?
- d) **Myositis** qanday kasallik?

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: Tibbiyotda lotin tili va atamashunoslikka kirish (tibbiy atamalarni o'zlashtirish). (2 soat)

Ilmiy-texnik terminologik tizimlarning tavsifi va tahlili so'nggi o'n yilliklarda lingvistik tadqiqotlarning yetakchi yo'nalishlaridan biridir. Maxsus atamashunoslik masalalariga bo'lgan qiziqishning ortishi terminologiya va uni turli xil bilim sohalarida moslashish rolining ortishi bilan izohlanadi. Atrofdagi dunyoning mohiyati va jarayonlarini yagona belgilash va tushunishga erishish, shuningdek ilmfan va ishlab chiqarishning turli sohalaridagi mutaxassislar faoliyatidan maksimal samaradorlikni olish uchun terminologiyani birlashtirish va uyg'unlashtirish masalalari ko'rib chiqilmoqda. Ilmiy-texnik makonni uyg'unlashtirish jarayoni ko'p jihatdan professional bilim sohalaridagi lingvistik to'signi bartaraf etishga bog'liq, shu sababli, bugungi kunda tilshunoslikning professional sohalarida til to'siqlarini bartaraf etishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Terminologlar va tilshunoslar terminologiya jarayonini ham, atamani terminologiya tizimida birlashtirishni ham o'rganadilar, atamashunoslikning asosiy mexanizmlarini aniqlaydilar, terminologik lug'at tarjimasining ekvivalentligiga erishish, atamashunoslik tushunchalarining tillararo muvofiqligini o'rnatish bo'yicha maqsadli tadbirlarni milliy va xalqaro darajada amalga oshiradilar.

Bundan tashqari, zamonaviy lingvistikada eng dolzarb masalalardan biri bu yangi lug'atlarni yaratish masalasidir va lug'atshunoslikda terminologik lug'atlarga alohida o'rin beriladi, bu madaniyatlararo aloqa sharoitida maxsus matn tarjimasi samaradorligini oshirishga, shuningdek, ilmiy muloqot jarayonida og'zaki nutq madaniyatiga yordam beradi.

Terminologik tadqiqotlarda muhim o'rinni asrlar davomida shakllanib kelgan va jadal rivojlanib kelayotgan tibbiyot terminologiyasi egallaydi. Tibbiyot terminologiyasiga bo'lgan qiziqishni uni o'rganishning turli jihatlariga bag'ishlangan ko'plab asarlar ko'rsatadi (masalan: M.N. Chernyavskiy (1984), L.A. Tatarinova (1984), G.G. Eryomkina (1991), E. V. Bekisheva (1998)), L.F. Elsova (2000), S.L. Mishlanova (2002), L.N. Gushchina (2004), Z.R. Palyutina (2005), E.V.

Bekisheva (2007), S.G.Dudeskaya (2007), T.A. Trafimenkova (2008), O.V. Velichko (2010), M.V. Ozingin (2010), E.M. Kakzanova (2011) va boshqalar.

Olingan ma'lumotlar tibbiyot terminologiyasini tilning umumiy terminologiyasi va nazariyasining avtonom bo'limi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi, shuningdek, tilshunoslarni tilning ichki tuzilishini tashkil etish, turli kategorik belgilarning o'ziga xos xususiyatlari, so'zni hosil qilishning samarali modellari va tilning turli darajalaridagi boshqa muhim hodisalarini o'z ichiga oladi.

“Terminologik portlash”, tibbiy bilimlarni keng tarqatish, ilmiy tibbiy tadqiqotlarni taro'ib qilish va boshqa ijtimoiy rivojlanish omillari zamonaviy atamalarni nomlash mexanizmlarini, uning struktur va semantik xususiyatlarini har tomonlama va chuqur o'rganishni, kasbiy so'z boyligini konseptualizasiya va metaforizasiya qilish jarayonida til alohida rolni egallashini talab qiladi.

Mahalliy tadqiqotchilarning ko'plab ilmiy ishlari anatomik, stomatologik, jarrohlik, onkologik va boshqa terminologik tizimlarni o'rganishga bag'ishlangan. Ammo tibbiyotning kardiologiya kabi sohasi so'nggi paytlarda ushbu bilim sohasi faol rivojlanib borishiga qaramasdan zamonaviy ilm-fanda to'liq tavsiflanmagan.

Rivojlanayotgan terminologik quyi tizimlarni shu jumladan kardiologik terminlarni o'rganish dolzarbdir, chunki bu zamonaviy tilning umumiy qonuniyatlarini fan tilida aks ettirishga imkon beradi. Ushbu qonuniyatlarga terminologiyada bir tomondan tor soha leksikasi, boshqa tomondan tarmoqlararo polisemiyaning rivojlanishida ifodalanadigan fanlarning differentsiatsiyasi va integratsiyasi kiradi. Bundan tashqari, postindustrial davr va yuqori texnologiyalar davri uchun xos bo'lgan xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvining kengayishi terminologik quyi tizimlarni intensiv ravishda xalqarolashtirish bilan birga kechadi. Natijada, ushbu bilimlar sohasining konseptual va terminologik apparatini mustaqil lingvistik qatlam sifatida o'rganish, hozirgi kunda tibbiyot xodimlari uchun ehtiyoj sezilayotgan kardiologik atamalarning ikki tilli terminologik lug'atining asosiy mezonlarini aniqlash muhim muammolardan bo'lib qolmogda.

Hozirgi davrda tibbiyotning rivojlanishi tashqi aloqalarning kengayishi, og'zaki va yozma xalqaro kasbiy muloqotning dolzarbligi, xalqaro fan tiliga

aylangan ingliz tilida kasbiy muloqotning jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Tibbiyot sohasida ishlaydigan mutaxassislar uchun kasbiy lugʻat va terminologiyani eng yaxshi talqin qiladigan ishonchli lugʻatga ega boʻlish juda muhimdir. Soʻzning toʻgʻri fonetik tuzilishi madaniyatlararo muloqotning muhim omilidir. Ikki tilli tibbiy lugʻatlarga kiritilgan fonetik maʼlumotlar chet tilini oʻrganadigan har bir kishi uchun ogʻzaki va yozma nutqda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy lugʻatlarda atamalarni roʻyxatdan oʻtkazish va ularning orfoepik xususiyatlarini rivojlantirish muammosi shoshilinch yechimni talab qiladi.

Tabbiyot terminologiyasi tibbiyot sohasidagi maxsus soʻzlar va ifodalar toʻplamidir. Bu terminologiya, tibbiyot sohasidagi fikrlarni, davolarni, kasalliklarni, anatomiya va fiziologiya haqida maʼlumotlarni ifodalashda va tushunchalar oʻrtasida oʻz maʼnolarini oʻzlashtirishda ishlatiladi.

Quyidagi koʻrinishda, bir qancha umumiy tibbiyot terminologiyasi misollarini keltiramiz:

Anatomiya: Inson yoki hayvonning tuzilish tizimi. Misol uchun, jigar, bosh, qoʻl, oyoq kabi tuzilish qismlari.

Fiziologiya: Organizmning normal faoliyati va funksiyalari. Misol uchun, qanday qilib oksigen qabul qilinadi va uni qanday qilib qon tizimiga yetkaziladi.

Kasalliklar: Tashqi yoki ichki sabablar tufayli sodir boʻlgan oʻzgarishlar yoki ooʻirliliklar. Misol uchun, qabzlik, grip, diabet kabi kasalliklar.

Davolash: Kasallikni davolash jarayoni. Misol uchun, dori ichish, operatsiya, terapiya va boshqa usullar.

Simptomlar: Kasallik yoki vaziyatning koʻrsatishlari. Misol uchun, qon bosimi, ooʻriq, bosh aqiliq kabi simptomlar.

Tanishtirish: Kasallikni aniqlash jarayoni. Misol uchun, laboratoriya testlari, rontgen, MRI skanlari va boshqa diagnostik usullar.

Farmakologiya: Dori va kimyoviy vositalar haqida maʼlumotlar. Misol uchun, antibiotiklar, analgetiklar, antidepresantlar kabi.

Epidemiologiya: Kasallikning tarqalganlik darajasini va uning sabablarini oʻrganish. Misol uchun, pandemiyalar, epidemiyalar, jinsiy yuqumlar kabi.

Profilaktika: Kasalliklarni oldini olish usullari. Misol uchun, aql-salomat hayotning o'rgangan shartlari, to'g'ri ovqatlanish va tibbiy belgilarni ko'rib chiqish.

Klinik atamalar kasalliklar, patologik holatlar, simptomlar va tashxis bilan bogʻliq terminlarni qamrab oladi. Bu atamalar koʻpincha yunoncha ildizlardan tashkil topgan boʻlib, kasallikning xarakteri, kechishi yoki joylashuvini bildiradi. Masalan, *gastritis* — oshqozon yalligʻlanishi, *arthritis* — boʻgʻim yalligʻlanishi, *anemia* — kamqonlik. Klinik terminlarni tarjima qilishda kasallik nomining tibbiyotda qabul qilingan oʻzbekcha shaklidan foydalanish zarur.

Metodik izoh:

Klinik terminlarni oʻrganishda ularni real klinik holatlar bilan bogʻlab tushuntirish samarali natija beradi. Oʻqituvchi oddiy misollar yoki klinik vaziyatlar (case study) orqali talabalarning fikrlashini faollashtirishi mumkin.

Farmatsevtik atamalar dorivor vositalar, ularning tarkibi, dori shakllari va qoʻllash usullari bilan bogʻliq terminlardan iborat. Bu sohada aniqlik va standartlashtirish alohida ahamiyatga ega. Masalan, *tablet*, *capsule*, *solution*, *injection* kabi atamalar dori shaklini bildiradi. Farmatsevtik terminlarni tarjima qilishda faol modda nomi saqlanib qoladi, dori shakli va qoʻllash usuli esa oʻzbek tilida ifodalanadi.

Metodik izoh:

Oʻqituvchi farmatsevtik atamalarni tushuntirishda dori yorliqlari yoki retsept namunalaridan foydalanishi mumkin. Bu talabalarning nazariy bilimni amaliy koʻnikmaga aylantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy atamalarni anatomik, klinik va farmatsevtik boʻlimlarda toʻgʻri tarjima qilish uchun terminning qaysi sohaga tegishli ekanini aniqlash, uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish va standart terminologiyaga amal

qilish lozim. Ushbu mavzuni o'zlashtirish talabalarning kasbiy savodxonligini oshiradi hamda kelajakdagi amaliy faoliyatida terminologik xatolarning oldini oladi.

Metodik yakun:

Dars oxirida talabalar bilan qisqa savol-javob yoki kichik test o'tkazish, shuningdek, mustaqil ish sifatida atamalar ro'yxatini tarjima qildirish tavsiya etiladi.

3-amaliy mashg'ulot: Prefiksatsiya va suffiksatsiya qo'shimchalari orqali atamalarni shakllantirish usuli. (2 soat)

Tibbiy terminologiya asosan lotin va yunon tillari asosida shakllangan bo'lib, atamalarni yaratishda prefiksatsiya va suffiksatsiya usullari muhim o'rin tutadi. Ushbu usullar orqali yangi tibbiy atamalar hosil qilinadi, mavjud terminlarning ma'nosi aniqlashtiriladi hamda kasallik, simptom, jarayon yoki holatning xususiyatlari ifodalanadi. Prefiks va suffikslarni to'g'ri qo'llash tibbiy atamalarni tushunish va tarjima qilish jarayonini yengillashtiradi.

Prefiksatsiya — bu so'zning bosh qismiga qo'shimcha qo'shish orqali yangi atama hosil qilish usulidir. Tibbiy prefikslar odatda jarayonning joylashuvi, yo'nalishi, miqdori, vaqti yoki darajasini bildiradi. Masalan, *hyper-* prefiksi ortiqcha yoki yuqori darajani, *hypo-* esa kamlik yoki yetishmovchilikni ifodalaydi. *Hypertension* atamasida *hyper-* prefiksi qon bosimining me'yoridan yuqori ekanini bildiradi, *hypoglycemia* atamasida esa qondagi glyukoza miqdorining kamayganini ko'rsatadi.

Tibbiy atamalarda keng qo'llaniladigan boshqa prefikslarga *sub-* (ostida), *inter-* (orasida), *intra-* (ichida), *peri-* (atrofida), *endo-* (ichki) va *ecto-* (tashqi) kiradi. Bu prefikslar yordamida anatomik va klinik holatlarning joylashuvi aniq ifodalanadi. Masalan, *subcutaneous* — teri osti, *intravenous* — tomir ichiga, *intercostal* — qovurg'alar orasidagi.

Suffiksatsiya esa so'zning oxiriga qo'shimcha qo'shish orqali atama hosil qilish usulidir. Tibbiy suffikslar ko'pincha kasallik nomi, yallig'lanish, o'sma, jarayon, holat yoki mutaxassislikni bildiradi. Masalan, *-itis* suffiksi yallig'lanishni

ifodalaydi (*bronchitis* — bronxlar yallig‘lanishi), *-oma* suffiksi o‘sma yoki shish ma’nosini beradi (*carcinoma* — saraton o‘smasi).

Shuningdek, *-osis* suffiksi patologik holatni, *-algia* og‘riqni, *-emia* qondagi holatni bildiradi. Masalan, *tuberculosis* — sil kasalligi, *neuralgia* — nerv og‘rig‘i, *anemia* — kamqonlik. Suffikslar yordamida klinik terminlarning mazmuni aniq va qisqa shaklda ifodalanadi.

Prefiksatsiya va suffiksatsiya usullari ko‘pincha birgalikda qo‘llanilib, murakkab tibbiy atamalar hosil qiladi. Masalan, *endocarditis* atamasida *endo-* prefiksi yurak ichki qavatini, *card* asos yurakni, *-itis* esa yallig‘lanishni bildiradi. Natijada atama yurakning ichki qavati yallig‘lanishini anglatadi.

Ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida talabalarda tibbiy atamalarning tuzilishini tahlil qilish, prefiks va suffikslarning ma’nosini ajratish hamda ularning asos bilan bog‘lanishini tushunish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu esa nafaqat terminlarni to‘g‘ri tarjima qilish, balki yangi tibbiy atamalarni mustaqil ravishda tushunish va izohlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, prefiksatsiya va suffiksatsiya tibbiy terminologiyaning asosiy so‘z yasash usullaridan biri bo‘lib, ularni chuqur o‘zlashtirish tibbiyot sohasida ta’lim olayotgan talabalar uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu bilimlar talabalarning kasbiy savodxonligini oshiradi va tibbiy matnlar bilan ishlashda aniqlikni ta’minlaydi.

1. Yunon - lotin dulet va anatomik old qo‘shimchalarni bilish.
2. Prefiks va prefiks yasama so‘zlarni tahlil qilish va yasashni bilish.

Bo‘lajak vrachni atamashunoslik jihatdan tayyorlash, undan faqatgina atamalarni tushunishgina emas, balki ularni o‘zlashtirib amalda qo‘llash ko‘nikmalarni shakllantirishni ham talab qiladi. Talabalar turli mediko -biologik va klinik fanlarga oid atamalarga duch keladi.

Klinik atamashunoslik anatomiyadan keyin, ya’ni talabalar lotin gramatikasini asosiy qoidalarini o‘zlashtirib bo‘lgach o‘rganiladi.

1. Yunon o‘za atama elementlari - lotincha anatomik nomlarni ekvivalentlarni

2. Soʻz oxirida qoʻllanivchi atama element - organ va toʻqimalardagi patologik oʻzgarishlar, operatsiya turlari, diagnostik tekshirish yoki davolash usullarini ifodalaydi.

3. Talabalar yunoncha va lotincha prefikslari qachon va qayerda toʻgʻri ishlatish yoʻllarini bilishi va toʻgʻri yoza olishlari kerak.

N	Prefikslar		Ma'nosi	Misollar	Tarjimasi
	lotin	yunon			
1.	ad		yaqinlashtiruvchi	adductor	yaqinlashtiruvchi
2.	ab	apo	uzoqlashtiruvchi	abductor	uzoqlashtiruvchi
3.	intra infra	endo	tashqaridan ichkariga harakat	intraabdominalis endoderma	qorin ichidagi, pus] pardasining varagʻ]
4.	extra	ecto exo	sirtqi ichkaridan tashqariga	extrauterius exoglossia exoplasma	bachadondan tashqari, tilning kattalashuvi
5.	infra sub	hypo	ost, ostki - normadan kam	infrascapularis hypogasticus hypotonia	kurak osti me'da osti qon bosimini pasa
6.	super supra	epi	yuqori, ustki, normadan koʻp	superior supraorbitalis epigastricus	yuqorigi; koʻz kosasi usti; me'da usti
7.	ante prae	hyper	old	antebrachium antenterius, pronephros	bilak; bachadonning old qismi oldingi buyrak
8.	post	meta	orqadagi	posterior postoperativus	orqada operatsiyadan soʻng
9.	inter	meso	orali oʻrta, aro	intervertebralis interscapularis interdental is mesoderma	umurtqalararo qovurgʻalararo tishlari pusht. oʻrta varagʻi !
10.	cicum	peri para	atrofida aylanma	cicumanalis periostium parasternalis	anal teshik atrofi suyak usti pardasi toʻshyoni

11.	trans	dia	ko‘ndalang	transplatatio transusversus diathermia	ko‘ndalang ko‘ndalang issiq o‘tkazish
12	retro re		orqadan qaytadan tiklash	retromandibularis retroflexio reatimatio rehabilitatio	Pastki jag‘ orqasida orqaga bukish jon kiritish faoliyatni tiklash
13	con com	sym syn	bilan	compressor simbiosis synostasi	qisish birga yashash ikki suyakni birikishi
14	contra	anti	qarama-qarshi	contralateralis contraindication	bir-biriga qarshi turgan dori yoki davoni oqmasligi
15	in im	enendo	tashqaridan ichkariga harakat	internus injection	ichkari dori yuborish
16	ex	ec	icnkaridan tashqariga xarakat	externa extermitas extrapium	tashqari ichi oxiri
17	imin	a, an	yo‘q yo‘qotish	anemia invalidus	kamqonlik kuchsiz
18	—	dys	buzilish	dystonia	tonusning buzilishi
19		eu	normal faoliyat	eurhythmia eupnoe	normal marom
20	dis	dia	bo‘lish taqsimlanish	dissominatio diagnosis	tarqalib, sochilib ketmoq kasallikni
21	de des	se	ajratib olish	desinfectio depressor	zaharli mikroblardan tozalash

Lotin - yunon prefikslari.

I. Quyidagi atamalar uchun umumiy AE (atama element) ajrating atamalarni tarjima qilin

1. Submandibularis, supramandibularis, retromandibularis, infrasternalis
2. Epiternalis, parasternalis, suprasternalis, trasthoracalis

3. Transplantasio, transfusion, transversus
4. Endodema, dystonia, hypertonia, hypotonia
5. Atonia, ectoderma, mesoderma, epidermis

II. Berilgan AE lardan atamalar yasang.

AE va atamalarning ma'nolarini solishtiring.

1. inter (costalis, muscularis, vertebralis)
2. contra (tussim, lateralis, indicatio)
3. re (constructio, animatio, spiratio)
4. (a, dys, hyper, hypo) trophia
5. (meso, epi, hypo) gastrum

Mustahkamlash uchun mashqlar. Sifatlarni tarjima qiling.

Pastki jag', ensa osti, til osti, bo'g'imlararo, muskullararo, to'sh orqasi, lunj orqasi, qorin tashqarisi, muskul uchi, qirg'oq tepasi, to'sh usti

1. Talabalar bilan tez savol - javob qilish og'zaki. Bunda talabalar qatorlararo musobaqa olib borishadi. Prestafkalar va yangi so'zlar yozilgan varaqlar o'qituvchi partasi ustida turadi va har bir qatordan bittadan talaba chiqib bir vaqtda savollarni olishadi va kim birinchi bo'lib javob bersa shu qator talabalari yuqori ball olishadi va shu tariqa o'yin davom etadi.
2. Talabalarni har bir termini va so'zlarni qay darajada bilishlarini tekshirish uchun yozma mikrokontrol olamiz.
3. Uyga berilgan mashqlar tekshiriladi.

Tekshirish uchun savollar.

1. Qaysi lotincha va yunoncha prefikslar "orqali" biror narsa orasida bo'lish ma'nosini bildiradi?
2. Qaysi prefikslar funksiya buzilishi, ma'nosini bildiradi?
3. O'zbek tilidagi "qarshi" prefiksi lotin va yunon tilidagi qaysi prefikslarga mos keladi?
4. Endoderma, mesoderma, ektoderma so'zlaridan qaysi biri terining ichki qavatini hisoblanadi?

Atama elementlar bo'yicha klinik atamalarni tuzish va umumiy mazmunini aniqlovchi topshiriqlarni bajarish, asosiy mazmunni bildiruvchi ma'noli qismlarga

ajratish va atamalarni tuza bilish, savodli yozish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

4-amaliy mashg'ulot: Lotin va yunon tibbiyot atamashunosligining zamonaviy tizimida aks etishi (4 soat)

Terminologik so'z yasashining ba'zi umumiy tushunchalarini, lotin va yunon qo'simchalari minimumini bilib olish. So'z yasovchi qo'shimchalar ma'nosini chiqarishni, berilgan ma'no bo'yicha qo'shimchali so'zlarni hosil qila olish. So'z tarkibi quyidagi na mazmun, na shakl jihatidan bo'linmas, eng kichik ma'noli qismlar farqlanadi: old qo'shimcha (prefiks), o'zak, suffiks va tugallanma (fleksiya). Ushbu eng kichik ma'noli qismlar morfema (yun. morphe - shakl) deyiladi.

“Atamashunoslik” va atamashunoslik tizimining asosiy tushunchalarini ko'rib chiqishda, birinchi navbatda, atamashunoslik va umumiy adabiy so'z birikmalarining o'zaro bog'liqligi haqida to'xtalish lozim. Ba'zi mualliflar terminologik birlikmalarning o'ziga xos xususiyatlari (kontekstdan mustaqillik, hissiy va ifodali fazilatlarining yo'qligi, aniqlik va boshqalar) atamashunoslikni adabiy tilning maxsus quyi tizimi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi va "atama - noatama" ya'ni tilda qarshi taraf sifatida mavjudligini ta'kidlaydi. Shunga ko'ra, atamashunoslik umumiy adabiy leksikaga ziddir, va oddiy so'zlar farqli ravishda maxsus birliklar sifatida atamalar o'zlari, ma'lum bir soha bilimlarining terminologik maydonida joylashadi.

R.Y. Kobrin va B.N Golovin umumiy adabiy til tizimidagi atamashunoslikni ko'rib chiqishni taklif qilishadi, chunki ko'pincha bir xil leksik birliklar bir vaqtning o'zida ham atamalar, ham umumiy ishlatiladigan so'zlar sifatida qullanilishi mumkin. Bundan tashqari, har ikkalasi ham bir xil darajada turli xil leksik-semantik o'zgarishlarga duch keladi, ya'ni bir xil so'z yasash modellarini ishlatish tendentsiyaga, haqiqatga, turli darajadagi intensivlikga, polisemiyaga, omonimiyaga va boshqalarga ega bo'ladi.

Atamani boshqa til birliklaridan qattiq ajratish va atamalarni maxsus yopiq tizimlarga ajratish tendentsiyasi "atamashunoslik" va "atamashunoslik tizimi" tushunchalarining korrelyatsiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Terminologiya deganda

"ma'lum bir sohada muloqotni amalga oshirish uchun maxsus ilmiy va texnik tushunchalarni va shu sohada muloqotni amalga oshirish uchun xizmatchilar to'plami tushuniladi va terminologik tizim deganda esa ular o'rtasida qayd etilgan munosabatlar bilan ko'plab atamalarni tartibga solish", ya'ni kodifikatsiya qilingan va birlashtirilgan atamashunoslik tushuniladi.

V.M.Leychik atamashunoslik va atamalar o'rtasidagi chegaralarni ajratishni qo'llab-quvvatlaydi. Uning so'zlariga ko'ra, atamalar majmui o'z-o'zidan yoki ongli ravishda tuzilishi mumkin. O'z-o'zidan tashkil etilgan atamalar to'plami atamashunoslik va ongli ravishda tashkil etilgan - atamashunoslik tizimi deb ataladi. Atamashunoslik tizimining asosi - bu konseptsiyalar tizimi yoki mantiqiy sxemaning ramziy shaklida ishlab chiqilgan va amalga oshirilganligidir. Ushbu sxemaning markazida yadro-asosiy tushuncha undan turlarni, belgilarni, funktsiyalarni, jarayonlarni va aralash obyektlarni ifodalovchi boshqa tushunchalar kelib chiqadi. Turli xil tushunchalar orasida umumiy, funktsional, atributiv va boshqa mantiqiy aloqalar mavjud. Biroq, bunday mantiqiy sxema hali terminologik tizim emas. To'laqonli terminologik tizim yaratish uchun mantiqiy sxemaga bu tushunchalarni yetarli ifodalovchi terminlarni tanlash va har bir terminga bitta tushuncha mos keladigan terminologik tizimni qo'shish zarur.

Sun'iy yaratilgan model sifatida atamashunoslik tizimining asosiy belgilari - tizim elementlari o'rtasida tizimli va qat'iy mantiqiy o'rnatilgan munosabatlardir. Ushbu talablarga javob bermaydigan atamalar atama tizimidan chiqib ketadi. Shunday qilib, atamashunoslik tizimning tashqarisida (ya'ni, atamalar nuqtai nazaridan tashqarida) mavjud bo'lgan va haqiqiy ilmiy muloqotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritadigan juda ko'p atamalar mavjud bo'lib, lekin ular lingvistik tahlil bilan qamrab olinmaydi.

Dastlab, inson faoliyatining ushbu sohasining kontseptual apparatini modellashtirish kerak va shundan keyingina atamashunoslik tizimlarni modellashtirishga o'tish kerak degan fikr boshqa olimlar tomonidan ham aytilgan. A.C.Gerd buni ta'kidlaydi. birinchidan, mantiqiy-kontseptual asosda ushbu fan uchun to'liq bilim tizimi qurilishi kerak va keyinchalik mazmun jihatidan qaysi birliklar

tizim birliklariga mazmunan mos kelishi haqida savol qo'yish maqsadga muvofiqdir. Biroq, mantiqiy ko'rinishda bunday ideal ko'rinishlar aslida juda kam uchraydi.

"Terminologiya" va "terminosistema" tushunchalarini ajratish uchun yana boshqa e'tiroz mavjud. Atamalar to'plamini tartibli va tartibsiz to'siqlarga ajratish printsiptal jihatdan mantiqsizdir, chunki o'zaro mantiqiy yoki semantik bog'liq bo'lmagan terminlar mavjud emas. Barcha atamalar u yoki bu darajada o'zlarining fan sohalari doirasida tashkil etilgan. Tashkillashtirish darajasi ma'lum bir sohaning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq, ammo oxirgi izoh umumiy tamoyilni bekor qilmaydi chunki atamashunoslik ta'rif bo'yicha tizimlidir. Agar shunday bo'lsa, "atamashunoslik" va "atamashunoslik tizimi" tushunchalari sinonim sifatida xizmat qilishi mumkin. Ular bizning tadqiqotimizda xuddi shunday qo'llaniladi.

Atamashunoslik ikki sohada o'zini namoyon qiladi:

- kontekstda mavjud terminologik birliklar va tizim doirasida atamalarning o'zaro bog'liqligi mavjud bo'lgan faoliyat sohasida (maxsus adabiyotlar, monografiyalar, qonun hujjatlari matnlari va boshqalar);

- atamalar yopiq tizim sharoitida va ular bir-biridan ajratilgan joylarda (maxsus ikki tilli va tushunarli lug'atlar, ensiklopediyalar, tezauruslar) aniqlangan hududda.

Atamashunoslikni lingvistik tahlil qilishda nafaqat maxsus lug'atlardan, balki maxsus matnlardan ham foydalanish zarur. V.V.Vinogradov shunday dedi: "atamani yaratish va aniqlashda ikki tomon, ikkita nuqtai nazar mavjud: strukturaviy-lingvistik va kontseptual, semantik, ma'lum bir ilm-fan, muayyan ishlab chiqarish, hunarmandchilik tushunchalari tizimining rivojlanishi bilan asoslangan. Bu ikki tomon bir-biriga madaniy va tarixiy an'analar bilan bog'liq". Terminologik tizimning kontseptual tomoni ushbu sohadagi atamalar orasidagi munosabatlarni aks ettiradi.

Turli tillarda terminologiyani qiyosiy o'rganish bilan ushbu darajaga e'tibor berish ayniqsa muhimdir. Terminologik lug'atlarda ko'pincha e'tibor faqat til darajasiga qaratiladi, bu esa tarjimada xatolariga olib keladi.

5-amaliy mashg'ulot: Dorivor o'silik xom ashyolaridan olinadigan dori vositalarining yaratilish sikli (nastoykalar, suyuq, quyuq va quruq ekstraktlar). (2 soat)

Suvli va suvsiz eritmalar, inyeksion va infuzion eritmalar, ularni tayyorlashda ishlatiladigan erituvchilar (inyeksion suv), ularni ilmiy asoslangan tarkibini tanlash, eritmani tayyorlash jarayoniga ta'sir qiluvchi oillarni o'rganish, tayyorlash texnologiyasi, sanoat miqyosida ishlab chiqarish.

Farmasevtik terminshunoslik «farmatsiya» (yun. *pharmakeia* – dori tayyorlash va qo'llash) nomi ostiga birlashuvchi va dori-darmonlar tarkibini o'rganish, qidirib topish, ishlab chiqarish va qo'llash bilan shug'ullanuvchi qator maxsus fanlar majmuasidan iborat. Bu majmuada markaziy o'rinni qo'llash uchun rasmiy ruxsatnomaga ega bo'lgan dorivor moddalar va preparatlar ya'ni dori darmonlar nomenklaturasi egallaydi. Dorivor moddalar sifatida qo'llanuvchi ko'pchilik kimyoviy birikmalar 2 xil nomga ega:

- 1) ilmiy yoki tizimli nom;
- 2) trivial (lot. *trivialis* - odatiy) nom

Trivial nomlardagi tarkibiy qismlar

1. Kimyoviy tarkib haqida ma'lumot beruvchi tarkibiy qismlar:

<i>Tarkibiy qism</i>	<i>Ma'nosi</i>	<i>Misol</i>
-acet(yl)-	atsetilsalitsil kislota mavjudligi	<u>Acetosal</u>
-aeth(yl)- (yun. aither - efir)	etil, etilen mavjudligi	<u>Aethacardinum</u>
-arsen-	margimush mavjudligi	<u>Myarsenolum</u>
-az(o)-, -(a)zid-, -(a)zin-, -zol- (yun. azotos - hayotsiz)	azot yoki azot guruhi mavjudligi	<u>Azetidin</u>
-benz- (ar. benzoa - xushbo'y shira)	benzol halqa mavjudligi	<u>Benzohexonium</u>
-bis-	vismut mavjudligi	<u>Bisalum</u>

-cyan-	sianid kislota yoki uning unumlari mavjudligi	<u>Cyanocobalaminum</u>
-fer(r)-	temir mavjudligi	<u>Ferramidum</u>
-form- (lot. formica - chumoli)	chumoli kislota unumlari mavjudligi	<u>Formalinum</u>
-glyc-	glukoza, shakar mavjudligi	<u>Corglyconum</u>
-io(d)-	yod mavjudligi	<u>Iodolein</u>
-merc- (lot. Mercurius - Merkuriy, savdo-sotiq homiysi)	simob vositalari mavjudligi	<u>Mercuropin</u>
-meth(yl)- (yun. methy - asal)	metil, metilen mavjudligi	<u>Methacyclinum</u>
-ox(y)- (yun. oxys - nordon)	kislorod mavjudligi	<u>Oxytetracyclinum</u>
-phen(yl)- (yun. phaino - yoritmoq)	fenil mavjudligi	<u>Phenobarbitalum</u>
-phosph- (yun. phosphoros - nur sochuvchi)	fosfor mavjudligi	<u>Phosphemidum</u>
-phthor- (yun. phthoros - buzilish)	ftor mavjudligi	<u>Phthorocort</u>
-thi(o)- (yun. theion - oltingugurt)	oltingugurt mavjudligi	<u>Thiodipinum</u>
-yl- (yun. hyle - modda; daraxt)	kislota va uglevodorod radikallari mavjudligi	<u>Methylandrostendiol</u>
-zep(am)-	benzodiazepin unumlari mavjudligi	<u>Phenazepanum</u>

2. Dori vositasining terapevtik yoʻnalganligini koʻrsatuvchi tarkibiy qismlar:

-alg-, -dol-	ogʻriq qoldiruvchi, analgetik	<u>Promedolum</u>
-aller(g)-	allergiyaga qarshi	<u>Allergival</u>

-atrax-	Tinchlantiruvchi	<u>Atraxin</u>
-barb-	uyqu chaqiruvchi	<u>Barbamylum</u>
-chol(e)-, -bil-	o't haydovchi	<u>Cholenzimum</u>
-cid- (<i>lot. occidere</i> - o'ldirmoq)	mikrobg, parazitga qarshi	<u>Streptocidum</u>
-cor-, -card-	yurakka oid, toj tomirlarini kengaytiruvchi	<u>Corvalolum</u>
-c(o)um-, -arol-	qon ivishiga to'sqinlik qiluvchi	<u>Acenocumarol</u>
-haem(at)-, -aem-	qon yaralishini rag'batlantiruvchi	<u>Haematogenum</u>
-lax-	bo'shashtiruvchi, surgi	<u>Acetolax</u>
-myc(o)-, -fung-	zamburug'ga qarshi	<u>Amycazolum</u>
-orex-	ishtaha tushiruvchi	<u>Anorex</u>
-peps-	ovqat hazm bo'lishini tartibga soluvchi	<u>Pepsinum</u>
-pres(s)-, -ten-	qon bosimini tushiruvchi, gipotenziv	<u>Apressinum</u>
-phlog- (-flog-)	yallig'lanishga qarshi	<u>Flogicort</u>
-pyr-	harorat tushiruvchi	<u>Antipyrium</u>
-sed-, -tranqu-, -val-	tinchlantiruvchi, sedativ	<u>Sedonal</u>
-sept-	zararsizlantiruvchi, antiseptik	<u>Enteroseptolum</u>
-trast-, -gnost-, -graf-	rentgen kontrast, tashxisga oid	<u>Choletrast</u>
-tromb-	tromblar agregatsiyasiga to'sqinlik qiluvchi	<u>Trombolytinum</u>
-ur-	siydik haydovchi	<u>Diurometan</u>
-vas-, -angi-	qon tomirini kengaytiruvchi, spazmni yo'qotuvchi	<u>Vasodilatol</u>
-verm-, -helm(int)-	gijjaga qarshi	<u>Univerm</u>
-vom(it)-, -emet-	qayt qilishga qarshi	<u>Emetisan</u>

3. Dori vositaning farmakologik guruhini ko'rsatuvchi tarkibiy qismlar:

a) og'riqsizlantiruvchilar:

-aesthes-	og'riqsizlantiruvchi, anestetik	<u>Anaesthesinum</u>
-cain-	mahalliy og'riqsizlantiruvchi	<u>Novocainum</u>
-morph- (<i>yun.</i> Morpheus - Morfey, tush ma'budi)	umumiy og'riqsizlantiruvchi (narkotik)	<u>Morphinum</u>
-narc-	umumiy og'riqsizlantiruvchi (narkotik)	<u>Narcotan</u>

b) antibiotiklar, mikrobg qarshilar:

-ceph- (-cef-, -cep-)	sefalosporinlar guruhi antibiotiklari	<u>Cephaloridinum</u>
-cillin-	penitsillinlar guruhi antibiotiklari	<u>Oxacillin</u>
-cyclin-	tetrasiklin guruhi antibiotiklari	<u>Tetracyclinum</u>
-mycin-, -mycetin-	<i>Streptomyces</i> shtammi zamburug'laridan ishlab chiqariladigan antibiotiklar	<u>Laevomycetinum</u>
-sulfa-	mikrobg qarshi sulfanilamidlar	<u>Norsulfazolum</u>

c) gormonal:

-cort(ic)-	buyrak usti bezi po'stlog'i gormonlari	<u>Hydrocortisonum</u>
-gest-	sariq tana gormonlari	<u>Progesteronum</u>
-insul-	me'da osti bezi gormonlari	<u>Insulincrisesum</u>
-oestr- (<i>yun.</i> oistros - ehtiros)	ayol jinsiy gormonlari vositalari	<u>Dimoestrolum</u>
-stan-, -ster-, -vir-, - andr-, -test-	erkak jinsiy gormonlari vositalari	<u>Tetrasteronum</u>
-parathy-	qalqon oldi bezi vositalari	<u>Parathyreoidinum</u>
-pitu(itr)-	gipofiz orqa bo'lagi vositalari	<u>Pituitrinum</u>

-thyr- (-tyr-, -tir-)	qalqonsimon bez faoliyatiga ta'sir etuvchi vositalar	Lio <u>thy</u> roninum
-----------------------	--	------------------------

d) fermentli:

-as-	Fermentlar	Lyda <u>s</u> um
------	------------	------------------

e) vitaminli:

-vit-	vitaminlar	Hexa <u>v</u> itum
-------	------------	--------------------

4. O'simlik yoki hayvon mahsulotlarini ko'rsatuvchi tarkibiy qismlar:

-al(li)-	sarimsoq, piyoz	<u>A</u> llisatum
-anth-	gul	Stropha <u>n</u> thinum
-api-, -virap-	asalari hayot faoliyati mahsulotlari	<u>A</u> pisatronum
-haemato-	hayvon qoni	<u>H</u> aematogenum
-ichthy- (yun. ichthyos - baliq)	qazilma baliq va boshqa dengiz hayvon qoldiqlari tutgan tog' jinslari	<u>I</u> chthyolum
-papaver-	ko'knor boshchasi, guli, urug'i	<u>P</u> apaverinum
-phyll-	barg	Euphyllinum
-phyt-	o'simlik	<u>P</u> hytinum
-rhiz-	ildiz, ildizpoya	Glycyrr <u>h</u> izin
-theo- (1. yun. theobroma - "ma'budlar taomi", kakao; 2. xit. thea - choy)	choy bargi	<u>T</u> heophyllinum
-vipr-	ilon zahri	<u>V</u> ipraxinum

aërosolum, in	aerazol
applicatio, onis <i>f</i>	applikatsiya (<i>balchiq, parafin qo'yish muolajasi</i>)
auristilla, ae <i>f</i>	quloq tomchisi

bacillus, i <i>m</i>	tayoqcha
butyrum, i <i>n</i>	sariyog‘
capsula, ae <i>f</i>	kapsula
capsula, ae <i>f</i> amylacea seu oblata	kraxmalli kapsula yoki g‘ilofli
capsula, ae <i>f</i> gelatinosa	jelatinali kapsula
charta, ae <i>f</i>	qog‘oz
caramelum, i <i>n</i>	karamel
cataplasma, atis <i>n</i>	kataplasma (<i>mahalliy isitish uchun xamirsimon yoki bo‘tqasimon qorishma</i>)
collyrium, i <i>n</i>	ko‘z malhami
conspersio, onis <i>f</i>	sepki
cremor, oris <i>m</i>	krem
decoctum, i <i>n</i>	qaynatma
dragée (<i>fr.</i>)	draje
emplastrum, i <i>n</i>	plastir
emulsum, i <i>n</i>	emulsiya
extractum, i <i>n</i>	ekstrakt
globulus, i <i>m</i>	sharcha
granulum, in	granula
gutta, ae <i>f</i>	tomchi
infusum, i <i>n</i>	damlama
limonatum, i <i>n</i>	limonad
linimentum, i <i>n</i>	surtma
lotio, onis <i>f</i>	losyon
membranula ophtalmica seu lamella ophtalmica	ko‘z plyonkalari
mixtura, ae <i>f</i>	aralashma
naristilla, ae <i>f</i>	burun tomchisi

oleum, i <i>n</i>	moy
pasta, ae <i>f</i>	pasta
potio, onis <i>f</i>	ichimlik
pulvis, eris <i>m</i>	kukun
sapo, onis <i>m</i>	sovun
serum, i <i>n</i>	zardob
sirupus, i <i>m</i> [medicinalis]	sirop
solutio, onis <i>f</i>	eritma
solvella, ae <i>f</i>	eriydigan tabletka
species, ei <i>f</i> (ko'plikda <i>species, erum</i>)	yig'ma
suppositorium, i <i>n</i>	shamcha
suspensio, onis <i>f</i>	suspenziya
stylus, i <i>m</i> seu stylum, i <i>n</i>	qalam
tabuletta, ae <i>f</i>	tabletka
tabuletta obducta	qobiqli tabletka
tinctura, ae <i>f</i>	tindirma
unguentum, i <i>n</i>	malham
vaccinum, i <i>n</i>	vaksina, emlik

I. Dori vositalari nomidagi sizga ma'lum tarkibiy qismlarni belgilang, ma'nosini tushuntiring:

A. Valocordinum, Cocarboxylasum, Morphinum, Testoenatum, Mycosolon, Sarcolysinum, Bicillinum, Rifothyroinum, Amycazolum, Mammophysinum, Oestronum, Erythromycinum, Aëvitum, Valosedan, Diiodthyrosinum, Polyoestradiolum, Pharyngosept, Adriamycinum, Mycoseptin, Chinocidum, Chlorophthalum, Methicillinum, Kanamycinum, Cholosasum.

B. Rifamycinum, Novurit, Sulfazinum, Pantocidum, Pyocidum, Streptodecasum, Norsulfazolum, Urodanum, Adrenalinum seu Epinephrinum, Gonadotropinum, Somatotropinum, Histidinum, Novocainum, Haemodesum, Enterodesum, Haemophobinum, Panangin, Quadevitum.

C. Synoestrolum, Gentamycinum, Synthomycinum, Phenobarbitalum, Barbamylum, Leucogenum, Laevomycetin, Mycoheptinum, Melosanum, Glycerinum, Glucosum, Asthmatinum, Anaesthesinum, Hydrocortisonum.

II. Dor vositalarining nomini lotin transkripsiyasida yozing:

A. streptosid, heparin, fibrinogen, pankreatin, lidaza, apressin, gidrolizin, dikloksatsillin, dikain, korvalol, insulin, nitroglitsrein, rezorsin, raunatin, rezerpin, validol, neodikumarin, papaverin, akrixin, pantotsid, angiotenzinamid.

B. tetrasiklin, penitsillin, xinin, bruneomitsin, olivomitsin, amidopirin, piromekain, kardiovalen, oraza, rutin.

III. O'zbek tiliga tarjima qiling:

A. solutio Strophanthini, tabulattae Prednisolini, granula Orasi, tabulattae Octeolestroli, tabulattae Pantocrini, unguentum "Psoriasinum", species antiasthmaticae, solutio Camphorae oleosa, emplastrum Epilini, Streptocidum solubile, solutio Streptocidi solubilis.

B. suspensio "Cindolum", suppositoria vaginalia "Osarbonum", tabulattae Mycoheptini obductae, species cholagogae, unguentum Tetracyclini ophtalmicum, linimentum "Sanitas", tabulattae "Cholenzymum", tabulattae "Praegoestrolum", flores Calendulae, solutio Glucosi, tabulattae "Panhexavitum", dragée "Aëvitum", species amarae.

6-amaliy mashg'ulot: Retsept strukturasi. Retsept yozish qoidalari. Tabletka, shamchalar va ko'z plyonkalarini yozishda tushum kelishigini qo'llanilishi.

(2 soat)

Retsepturada atamalarni to'g'ri talaffuz qilish, ixtiyoriy tibbiy atamalarni tuza olish va tushuntira bilish; retseptlarni tez va savodli yozishni o'rgatish, bilim va ko'nikmalarni davomli o'zlashtirish jarayonida mustahkamlash va malakalariga ega bo'lishi kerak.

Retsept quyidagi qismlardan iborat:

Medicina muassasasining shtamp va shifri.

Retsept berilgan sana.

Bemorning ismi, sharifi.

Bemorning yoshi.

Vrachning ismi sharifi.

Vrach murojaati va dori-darmonning miqdori.

Bu lotincha qismda vrachning farmatsevtga dori shakli, uning dozasi, upakovkasi va dorini berish haqidagi aniq ko'rsatmasi yozilib, Recipe — 01 so'zi bilan boshlanadi.

Signa so'zi va vrachning dorini qabul qilish usuli haqidagi kasalga ko'rsatmasi yoziladi.

Vrachning shaxsiy imzosi va muhri.

Retsepdagi qo'shimcha quyidagi yozuvlar blankaning o'ng tomonida yuqori qismida yoziladi:


Cito — Darhol! yoki Statim — Tezlik bilan! (bemorga dori-darmonni shoshilinch berilishi zarurligini ko'rsatadi.)

Repete! — Takrorla yoki Bis repetatur! — Ikki marta takrorlansin! yozuvlari uzoq davom etuvchi davolanishda dori darmonning bir necha bor takrorlanishi kerakligini bildiradi

Retseptning lotincha qismi

Resept - Recipe - 01 fe'li bilan boshlanadi.

Sxemaga e'tibor bering.



Har bir dori-darmon yangi qatordan yoziladi. Qatoming boshlanishida Rp; dan keyin dorivor modda va o'simliklar nomi bosh harf bilan boshlanadi.

Dorivor moddalarning (preparatlaming) nomlari qaratqich kelishigida yoziladi.
Dorivor moddaning soni (dozasi) Akkuzativda qo‘llanadi.
Masalan: Recipe: Infusi herbae Thermopsidis 0,1-100 ml.

Liquoris Ammonii anisati 1 ml.

Natrii benzoatis 0,6 Sirupi Althaeae 20 ml.

Misceatur. Detur. Signetur.

Ol: Afsonak yer ustki qismi damlamasi 0,1—100 ml.

Novshadil spirti 1 ml.

Natriy benzoat 0,6.

Gulxayri sharbati 20 ml.

Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.

Qattiq va sachratuvchi dorivor moddalar miqdori grammlar bilan belgilanadi
«gramm» so‘zi yozilmaydi, uning raqami o‘nli kasr bilan ifodalanadi.

Masalan: Recipe: Unguenti Zinci 30,0.

Ol: Rux surtmasi.

Recipe: Anaesthesini 0,3.

Ol: Anestezin 0,3.

Recipe: Extracti Belladonnae 0,015.

Ol: Krasavka ekstrakti 0,015.

Suyuq dorilarning miqdori millilitrda beriladi:

Recipe: Olei Vaselini 30 ml. (30,0)

Ol: Vazelin moyi 30 ml. (30,0)

Recipe: Extracti Crataegi fluidi 20,0 Ol:

Suyuq doiana ekstrakti 20,0

Suyuq dorivor preparatning miqdori 1 ml kam bo'lsa, u tomchilarda dozirovka qilinadi va birlikda Akkuzativda (guttam), ko'plikda (guttas) yoziladi.

Masalan: Recipe: Solutionis Adrenalini hydrochloridi
0,1 guttas 1.

Ol: Adrenalin gidroxlordining eritmasi 0,1 bir tomchi.

Recipe: Olei Menthae piperitae guttas 5.

Ol: Qalampir yalpiz moyi 5 tomchi

Antibiotiklar yozilganda dozirovka tasir birligida belgilanadi.

Recipe: Benzylpenicillini-natrii 250 000 ED.

Ol: Benzilpenisilin-natriy 250 000 TB.

Retseptlarda moddalarning miqdori qatoming o'ng tomonida yoziladi.

Eslab qoling! Ikkita yoki bir necha dorivor moddalar teng miqdorda berilsa uning dozasi oxirgi dorivor moddadan so'ng ko'rsatiladi va raqam oldida (tengma-teng - ana) so'zi yoziladi.

Recipe: Amidopyrini.
Analgin ana 0,25.
Da tales doses numero 12 in tabulettis.
Signa.

Agar bir qatorga dorivor modda siG‘masa unda yozuv yangi qatordan shunday yoziladi-ki, dorivor modda miqdori o‘ng tomonida qolishi kerak.

Mashqlar

I. Lotin tiliga tarjima qiling:

ineksiya uchun dibazol eritmasi, valeriana ildizi bilan ildizpoyalar, bolalar uchun dimedrol bilan shamchalar, yo‘talga qarshi tabletkalar, tashqariga qo‘llash uchun furatsilin eritmasi, ampulalarda diprofillin eritmasi, shprits-tubiklarda dimedrol eritmasi, kapsulalarda kanakunjut moyi, toza holda kanakunjut moyi, narkoz uchun efir, tabletkalarda validol, kapsulalarda “Aevit”, 0,25 dan amidopirin tabletkalari va fenatsetin, suspenziya uchun ampitsillin kukuni.

II. Yetmayotgan tugallanmalarni qo‘ying:

Recipe: Suppositori... cum Ichtyol... numero 10

Recipe: Tabulett... extract... Valerian... 0,02 obduct... numero 50

Recipe: Spirit... aethylic... 95% - 20 ml

Aqu... pro injection... 10 ml

Recipe: Pulver... cum Oxytetracyclin... pro suspension... 30,0

III. O‘zbekcha so‘zlarni lotinchaga almashtiring:

Recipe: Tabulettas (yo‘talga qarshi) numero 12

Recipe: Tabulettas Furacilini 0,02 (tashqariga qo‘llash uchun) numero 10

Recipe: Suppositoria (ekstrakti bilan) Belladonnae 0,015 numero 6

Recipe: Aetheris (narkoz uchun) 100 ml

Da (qora shishada)

Recipe: Solutionis Diprophyllini 10% - 5 ml

Da tales doses numero 6 (ampulalarda)

IV. Retseplarni lotin tiliga tarjima qiling:

1. Ol: Valeriana ekstrakti 0,3

Do‘lana tindirmasi 0,15

Rovoch tindirmasi 0,8

Barbital natriy 0,2

Etil spirti 20 ml

Distillangan suv 200 ml gacha

Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin: *1 choy qoshiqdan kuniga 3 marta*

2. Ol: Itshumurt po‘stlog‘i

Gazanda barglari 15,0 dan

Qalampir yalpiz barglari

Valeriana ildizi bilan ildizpoyalar 5,0 dan

Yig‘ma hosil bo‘lsin

Ber. Belgila: *1 stakan qaynatilgan suvga 1 osh qoshiq hisobidan qaynatma tayyorlansin, ½stakan ertalab va kechqurun qabul qilinsin*

3. Ol: Eufillin 0,1

Dimedrol 0,0125

Shakar 0,2

Aralashtir, kukun hosil bo‘lsin

Shunday dozalarda ber kapsulalarda 12 dona

Belgila: *1 kapsula kuniga 3 marta*

4. Ol: Marvaridgul tindirmasi

Valeriana tindirmasi 10 ml dan

Nitroglitserin eritmasi 1% - 1 ml

Validol 2 ml

Aralashtirilsin, berilsin, belgilansin: *15 tomchidan kuniga 3 marta*

5. Ol: Do‘lana suyuq ekstrakti 25 ml

Berilsin, belgilansin: *20 tomchidan kuniga 3 marta ovqatdan oldin*

6. Ol: Barbital natriy 0,5

Kakao moyi qancha kerak bo‘lsa, shamcha hosil bo‘lishi uchun

Shunday dozalarda berilsin 12 dona

- Belgilansin: *kechasi 1 shamchadan*
7. Ol:Furatsillin tabletkasi 0,02
Shunday dozalarda ber 10 dona
Belgila: *1 tabletkani 1 stakan suvda eritilsin, chayish uchun*
8. Ol: Monomitsin 0,25
Shunday dozalarda ber tabletkalarda 50 dona
Belgila: *1 tabletkadan kuniga 2 marta*
9. Ol:Amidopirin
Fenatsetin 0,25 dan
Shunday dozalarda berilsin tabletkalarda 12 dona
Belgilansin: *1 tabletkadan kuniga 3 marta*
10. Ol:12 dona sulfadimezin tabletkalari 0,5
Ber. Belgila: *1 tabletkadan kuniga 4 marta*
11. Ol:6 dona “Anuzol” shamchalari
Berilsin. Belgilansin: *kechasi 1 shamchadan to ‘G‘ri ichakka*
12. Ol:50 dona “Revit” drajesi
Berilsin, belgilansin: *1 draje kuniga 3 marta*
13. Ol:30 dona florenal bilan ko‘z pardalari
Berilsin. Belgilansin: *pastki qovoqqa qo‘yilsin sutkasiga 2 marta*

KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-ko‘chma mashg‘ulot. Lotin tili va tibbiy terminologiya doirasida tibbiy terminlarni tibbiyotda aniq, qisqa, tushunarli va ilmiy asoslangan holda bilish qobiliyatini shakllantirish (6 soat)

Zamonaviy tibbiyot fanining rivojlanishi tibbiy terminologiyani mukammal bilishni talab etadi. Tibbiy atamalar kasalliklarni aniqlash, tashxis qo‘yish, davolash jarayonini rejalashtirish hamda ilmiy muloqotni olib borishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu terminlarning asosiy qismi lotin tiliga tayanadi. Shu sababli lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘rganish tibbiyot sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun zarur bilimlar majmuasidir.

Mazkur ishda lotin tili asosida tibbiy terminlarni aniq, qisqa, tushunarli va ilmiy asoslangan holda bilish qobiliyatini shakllantirish masalalari yoritiladi.

Lotin tilining tibbiyotdagi ahamiyati

Lotin tili ko‘p asrlar davomida ilm-fan tili sifatida qo‘llanib kelgan. Bugungi kunda ham u tibbiyot sohasida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Anatomik tuzilmalar, fiziologik jarayonlar, kasalliklar nomi, dori vositalari va klinik tashxislarning aksariyati lotin tilida ifodalanadi.

Lotin tilining tibbiyotda qo‘llanilishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- terminlarning aniqligi va bir ma’noiligi;
- xalqaro miqyosda tushunarli;
- ilmiy muloqotda yagona terminologik tizimni ta’minlashi.

Shu jihatdan, lotin tili tibbiyot terminologiyasining mustahkam poydevori hisoblanadi.

Tibbiy terminologiyaning mohiyati va vazifalari

Tibbiy terminologiya — tibbiyotga oid tushunchalar, hodisalar va jarayonlarni ifodalovchi maxsus atamalar tizimidir. U tibbiyot fanining barcha sohalarini qamrab oladi: anatomiya, terapiya, xirurgiya, farmakologiya, patologiya va boshqalar.

Tibbiy terminologiyaning asosiy vazifalari:

- tibbiy tushunchalarni aniq va lo‘nda ifodalash;
- mutaxassislar o‘rtasida samarali muloqotni ta‘minlash;
- ilmiy va amaliy faoliyatda xatolarning oldini olish.

To‘g‘ri shakllangan terminologik bilim tibbiyot xodimining kasbiy savodxonligini oshiradi.

Tibbiy terminlarning tuzilishi va yasalihi

Tibbiy terminlar asosan lotin va yunon tillari asosida yasaladi. Ular ma‘lum tuzilishga ega bo‘lib, bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

- **Ildiz (radix)** — terminning asosiy ma‘nosini bildiradi;
- **Old qo‘shimcha (prefix)** — termin ma‘nosini aniqlashtiradi;
- **So‘nggi qo‘shimcha (suffix)** — jarayon, kasallik yoki holatni ifodalaydi.

Masalan:

Gastritis — *gastr* (oshqozon) + *itis* (yallig‘lanish), ya‘ni oshqozon yallig‘lanishi.

Terminlarning tuzilishini bilish ularni oson tushunish va eslab qolishga yordam beradi.

Tibbiy terminlarni aniq va tushunarli bilish qobiliyatini shakllantirish

Tibbiy terminlarni o‘zlashtirishda tizimli va ilmiy yondashuv muhim ahamiyatga ega. Quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

- terminlarning kelib chiqishini (etimologiyasini) o‘rganish;
- lotin tili grammatik asoslarini bilish;
- terminlarni klinik misollar orqali mustahkamlash;
- yozma va og‘zaki mashqlar yordamida amaliy qo‘llash.

Bu jarayon talabada tibbiy terminlarni aniq va qisqa ifodalash qobiliyatini shakllantiradi.

Ilmiy asoslangan yondashuvning ahamiyati

Tibbiy terminologiyani o‘rganishda ilmiy asoslangan yondashuv quyidagilarni talab qiladi:

- standartlashtirilgan terminlardan foydalanish;
- xalqaro tibbiy nomenklaturalarga rioya qilish;

- ishonchli ilmiy manbalarga tayanish.

Bu yondashuv tibbiyot amaliyotida aniqlikni ta'minlaydi va ilmiy faoliyat sifatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, lotin tili va tibbiy terminologiyani puxta o'rganish tibbiyot sohasida aniq, qisqa va ilmiy asoslangan bilimlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Tibbiy terminlarni to'g'ri tushunish va qo'llash kasbiy faoliyat samaradorligini oshiradi hamda tibbiyot xodimining ilmiy saviyasini yuksaltiradi

2-ko'chma mashg'ulot. Tibbiy terminologiyada maqol va matnlarning ahamiyati anglash va to'g'ri tarjima qilish (6 soat)

Tibbiyot sohasida ilmiy axborotlarning asosiy qismi turli tibbiy matnlar va ilmiy maqolalar orqali yetkaziladi. Ushbu manbalar tibbiyot fanining rivojlanishi, yangi tashxis va davolash usullarining amaliyotga joriy etilishida muhim o'rin tutadi. Tibbiy matnlar maxsus terminologiyaga asoslangan bo'lib, ularni to'g'ri anglash va tarjima qilish tibbiyot xodimlari va talabalari uchun zarur kasbiy ko'nikma hisoblanadi. Ayniqsa, lotin tili va xalqaro tibbiy terminlarga boy bo'lgan matnlarni noto'g'ri tushunish ilmiy mazmunning buzilishiga va amaliy xatolarga olib kelishi mumkin.

Tibbiy terminologiyada maqol va matnlar ilmiy bilimlarni tizimli va aniq shaklda ifodalash vositasi hisoblanadi. Ilmiy maqolalar orqali tibbiyot sohasidagi yangi tadqiqot natijalari, klinik kuzatuvlar va tajribalar e'lon qilinadi. Ushbu matnlarda terminlar aniq, qisqa va bir ma'noli qo'llanadi. Bu esa tibbiyot mutaxassislari o'rtasida yagona tushuncha va ilmiy muloqotni ta'minlaydi. Tibbiy matnlarni chuqur anglash terminologik bilimning yetukligiga bevosita bog'liqdir. Tibbiy matnlarni anglash jarayonida terminlarning ma'nosini to'liq tushunish muhim ahamiyatga ega. Har bir tibbiy termin ma'lum bir anatomik tuzilma, fiziologik jarayon yoki patologik holatni ifodalaydi. Terminlarni noto'g'ri talqin qilish tashxis qo'yish va davolash jarayonida jiddiy xatolarga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli tibbiy matnlar bilan ishlashda terminlarning kelib chiqishi,

tuzilishi va qo'llanilish doirasini bilish zarur hisoblanadi. Tibbiy matnlarni tarjima qilish murakkab va mas'uliyatli jarayon bo'lib, u oddiy tarjimadan tubdan farq qiladi. Tarjima jarayonida terminlarning so'zma-so'z emas, balki tibbiyotda qabul qilingan ilmiy muqobillari qo'llaniladi. Masalan, ko'plab lotincha va inglizcha terminlar o'zbek tilida mazmuniga mos holda tarjima qilinadi. Tarjimon matnning ilmiy uslubini saqlab qolishi, terminologik aniqlik va mantiqiy izchillikka rioya qilishi lozim.

To'g'ri tarjima qilishda kontekst muhim o'rin tutadi. Bir termin turli klinik vaziyatlarda turlicha ma'no kasb etishi mumkin. Shuning uchun tarjima jarayonida faqat lug'atlarga emas, balki matnning umumiy mazmuniga ham e'tibor berish talab etiladi. Xalqaro tibbiy nomenklaturalardan foydalanish tarjimaning aniqligi va ishonchliligini oshiradi.

Tibbiy maqol va matnlar bilan muntazam ishlash terminologik savodxonlikni rivojlantiradi. Talabalar va mutaxassislar uchun ilmiy matnlarni o'qish, tahlil qilish va tarjima qilish kasbiy fikrlashni shakllantiradi. Bu jarayon tibbiy terminlarni amaliy kontekstda o'rganishga, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga yordam beradi. Tibbiy matnlarni to'g'ri anglash uchun terminlarning ma'nosini chuqur bilish zarur. Har bir termin aniq bir tushunchani ifodalaydi va ko'pincha sinonimlarga ega emas. Terminlarning noto'g'ri tushunilishi ilmiy mazmunning buzilishiga olib keladi.

Terminlarni anglash quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ilmiy maqolalarning mazmunini to'liq tushunish;
- tashxis va davolash jarayonini to'g'ri rejalashtirish;
- xalqaro tibbiy hamkorlikda samarali muloqot qilish.

Tibbiy matnlarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari

Tibbiy tarjima oddiy tarjimadan tubdan farq qiladi. Bu jarayonda tarjimon:

- terminlarning standart shaklini bilishi;
- lotin va yunon ildizlarini tushunishi;
- matnning ilmiy uslubini saqlab qolishi zarur.

Tibbiy terminlar ko‘pincha so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydi, balki amaliy tibbiyotda qabul qilingan muqobil terminlar bilan beriladi. Masalan, *hypertension* termini “yuqori qon bosimi” deb tarjima qilinadi.

To‘g‘ri tarjima qilish tamoyillari

Tibbiy matnlarni to‘g‘ri tarjima qilish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- terminologik aniqlik;
- mantiqiy izchillik;
- ilmiy uslubga rioya qilish;
- xalqaro nomenklaturalardan foydalanish.

Tarjima jarayonida kontekstni hisobga olish muhim bo‘lib, bir termin turli vaziyatlarda turlicha ma’no kasb etishi mumkin.

Maqol va matnlar orqali terminologik ko‘nikmalarni rivojlantirish

Tibbiy maqol va matnlar bilan muntazam ishlash terminologik savodxonlikni oshiradi. Bu jarayon:

- terminlarni amaliy kontekstda o‘rganish;
- tarjima qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- ilmiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

Talabalar uchun original tibbiy matnlarni o‘qish va tarjima qilish muhim o‘quv vositasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy terminologiyada maqol va matnlar ilmiy bilimlarning asosiy manbai bo‘lib, ularni anglash va to‘g‘ri tarjima qilish tibbiyot mutaxassislari uchun zarur kasbiy kompetensiyadir. Terminlarni to‘g‘ri talqin qilish tibbiy faoliyatda aniqlikni ta’minlaydi va ilmiy muloqot samaradorligini oshiradi.

V. GLOSSARIY

Termin	Ingliz tilidagi sharhi	O‘zbek tilidagi sharhi
humerus	shoulder	yelka suyagi
incisura	notch	o‘yma
inguineus	inguineus	chov
lumbus	lumbus	bel
periosteum	periosteum	suyak usti pardasi
jugularis	jugular	bo‘yinturuqqa oid
pharynx	pharynx	halqum
abdomen	abdomen	qorin
oncha, ae, f	Onchu	chig‘anoq
lamina, ae, f	Plate	plastinka
acromion	cromion	yelka o‘sig‘i
articulatio	joint, articulation	bo‘g‘im
brachium	shoulder, brachium	elka
canālis	canal	kanal
cingulum	belt, girdle	belbog‘
clavicula	clavicle	o‘mrov suyagi
coccyx	coccyx	dum suyagi
costa	rib, costa	qovurg‘a
dens	tooth, dent	tish
fissura	fissure, crevice	o‘yiq, yoriq

Termin	Ingliz tilidagi sharhi	O‘zbek tilidagi sharhi
vena, ae, f	Vein	vena
insulin	Insulin	insulin
patella, ae, f	Knee pad	tizza qopqog‘i
sutura, ae, f	sewing	chok
tuba, ae, f	trumpet	nay

vertebra, ae, f	vertebra,	umurtqa
gaster tris, f	stomach	oshqozon
squama, ae, f	squamous	tangacha
umbo, onis, m	umbiculus	kindik
pterygoideus, a, um	pterygoideus	qanotsimon
rectus, a, um	right	to‘g‘ri
thyr(e)oideus, a, um	a sprig of Heroides	qalqonsimon
transversus, a, um	Transverse	ko‘ndalang
venosus, a, um	venous	venaga oid
zygomaticus, a, um	zygomatic	yonoqqa oid
Fossa	fosse, ditch [fɔs], [dits]	chuqurcha(uzunchoq)
fovea	pit, fovea [pit], '[fɔ:vi:]	chuqurcha(dumaloq)
hiātus	gap, hiatus [gæp] , [haīātəs]	yoriq, tirqish
humērus	humerus ['hjumərəs]	yelka suyagi
incisura	notch [notʃ]	o‘yma, kemptik
mandibula	mandible ['mændibl]	pastki jag‘
maxilla	maxilla [mæk'silə]	yuqori jag‘
membrum	member ['membə]	qo‘l-oyoq uchlari
olecrānon	olecranon [o'lekrənən]	tirsak o‘sig‘i
periosteum	periosteum	suyak usti pardasi

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Игнатова Н. Ю. Образование в цифровую эпоху: монография. М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017. – 128 с. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2020.pdf
2. Кононюк А.Е. Облачные вычисления. – Киев, 2018. – 621 с.
3. Тенденци и развития высшего образования в мире и в России. Аналитический доклад-дайджест. - М., 2021.- 198 с.
4. Муслимов Н.А ва бошқалар. Инновацион таълим технологиялари. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: “Sano-standart”, 2015. – 208 б.
5. О.С. Фролова. Формирование инновационной компетенции педагога в процессе внутришкольного повышения квалификации. Дисс.к.п.н. Воронеж 2018.
6. Компетенции педагога XXI века [Электронный ресурс]: сб. материалов респ. конференции (Минск, 25 нояб. 2021 г.) / М-во образования Респ. Беларусь, ГУО «Акад. последиплом. образования», ОО «Белорус. пед. о-во». – Минск: АПО, 2021.
7. Ишмухамедов Р.Ж., М.Мирсолиева. Ўқув жараёнида инновацион таълим технологиялари. – Т.: «Фан ва технология», 2020, 60 б.
8. Ишмухамедов Р, Мирсолиева М, Акрамов А. Рахбарнинг инновацион фаолияти. – Т.: “Фан ва технологиялар”, 2019.- 68 б.
9. Коджаспирова Г.М. Педагогика в схемах, таблицах и опорных конспектах. / -М.: Айрис-пресс, 2021.
10. Rustamova S.Sh., Saydullayeva M.A., Abdullayeva R.M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2022 yil.
11. Чернявский М.Н. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Учебник. Москва. 2020 г.
12. Учебник. Киев. 2019 г. 4. Turdiyeva K., Hamraqulova M., Berezovskaya R., Mahkamov M. Tibbiy terminologiya bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2018-y.

13. Turdiyeva K., Berezovskaya R., Hamraqulova M., Mahkamov M. Tibbiy terminologiya bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent. 2016-y.
14. Словар латино-греко-русско-англо-узбекских медицинских терминов. Агентство по интеллектуальной собственности Республики Узбекистан ДГУ 04860. Ташкент. 2017.
15. Z.Sh.Akramova, Sh.M.Shirinqulova, Sh.E.Abrayeva, M.M.Abrayeva Lotin tili va tibbiy terminologiya fani bo'yicha o'quv qo'llanma. TIBBIYOT NASHRIYOT MATBAA UYI. - 104, 2023-yil.
16. Sh.E.Abrayeva, O.A.Hazratqulova Lotin tili va tibbiy terminologiya nomli o'quv qo'llanma. TIBBIYOT NASHRIYOT MATBAA UYI. -152, 2024-yil.

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. www.edu.uz.
2. www.aci.uz.
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.lib.bimm.uz
5. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
6. www.sciencedirect.com
7. www.acs.org
8. www.nature.com
9. <http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html>.